

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI

UMUMIY GIGIENA KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Urganch filiali o`quv ishlari bo`yicha direktor  
muovini, t.f.d., professor \_\_\_\_\_

I.A.Qilichev

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2006 yil

*Bilim doirasi: 720000 - «Sog`liqni saqlash»  
Bilim yo`nalishi: 5720100 - «Davolash ishi»  
5720200 - «Pediatriya ishi»*

FUQAROLAR MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR

FANIDAN MA`RUZA MATNLARI TO`PLAMI

DAVOLASH VA PEDIATRIYA FAKULTETI  
TALABALARI UCHUN

Ma`ruza matnlari to`plami fan bo`yicha  
namunaviy dasturlar asosida tuzilgan

“TAVSIYA ETILGAN”

Umumiy gigiena kafedراسi

№ 9 sonli bayonnoma

“22 ” may 2006yil

kafedra mudiri : t.f.d., professor

Do`schanov B.A. \_\_\_\_\_

Urganch – 2006

Tuzuvchilar:

Do`shanov  
Baxtiyor Allaberganovich- Tosh TA Urganch filiali Umumiy gigiena ka-  
fedrasi mudiri t.f.d., professor

Nuralieva  
Hafiza Otaevna - Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali umumiy gigiena  
kafedrasi dotsenti

Yusupova  
Orzigul Bobojonovna - Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali umumiy gigiena  
kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Abdullaev  
Ibodulla Qo`chqarovich - Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali ijtimoiy gigiena  
kafedrasi

Qayumov A.M. – Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti H'arbiy  
kafedrasi mudiri, podpolkovnik

## Ishchi dastur

2002 yilgi namunaviy dastur asosida tuzilgan

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi  
Urganch filiali MO'Q ida muhokama  
qilingan.  
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi  
Urganch filiali ilmiy kengashida  
tasdiklangan  
26 avgust 2005 yil (1-son  
bayonnoma)

### Ma'ruzalar rejasi

No	Ma'ruzalar mavzusi	Soat
1.	Fuqaro muhofazasining hozirgi zamon urushida tutgan o`rni, fuqaro muhofazasi vazifalari	2
2.	Fuqaro muhofazasining halq ho`jaligi ob'ektlari va tibbiyot institutarining tashkiliy tuzilishi	2
3.	SHikasitlanish o`choqlarining tibbiy-taktik tasnifi	2
4.	Aholini yalpi qirg`in qurollaridan va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy printsip va vositaliri	2
5.	Fuqarolarni fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi o`qishlarni tashkil etish	2
6.	Fuqaro muhofazasi tibbiyot xizmatini tashkiliy tuzilishi. Zararlangan aholi uchun davolash evakuatsiya ta`minotini tashkil qilish asoslari	2
7.	Fuqaro muhofazasi tibbiyot tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tibbiyot xizmati muassasalarini shuningdek ah`olini fuqaro muhofazasi vositaliri bilan ta`minlash	2
8.	Jarohatlanganlarga ixtisoslashgan tibbiy xizmatni tashkil etish	2
9.	Bakteriologik (biologik) shikastlanish o`chog`ida epidemiyaga qarshi tadbirlarni o`tkazish	2
Jami		18

### Ma'ruza № 1

Mavzu: **Fuqorolar muhofazasining hozirgi zamon urushida to'tgan o`rni.**  
**Fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalari**

Mavzuning maqsadi:

- Fuqorolar muhofazasining hozirgi zamon urushida to'tgan o`rnini tushintirish
- Fuqorolar muhofazasining tibbiy fanlar ichida to'tgan o`rnini tushintirish
- Fuqorolar muhofazasi tarkibi va asosiy vazifalari to`g`risida tushunchaga ega bo`lish

Kutilayotgan natijalar: Talabalar ma'ruza eshitgandan keyin bilishlari kerak:

- FM tashkilotining tarkibiy tuzilishi va vazifalarini
- FM ning h'arbiy bo`lmagan tuzilmalarini vazifalarini tarkibini
- FM tashkilotining jamiyatda to'tgan o`rnini

Ma'ruza rejalari

- FM tashkilotining to'tgan o`rni
- FM tashkilotining asosiy vazifalari
- FM tashkilotining tarkibiy tuzilishi

### O`qituvchining №1 ma'ruza bo`yicha izohi

Bizning mamlakatimizda Fuqorolar muhofazasi bu- tinchlik va harbiy sharoitlarda olib boriladigan umumdavlat mudofaa tadbirlari sistemasining tarkibiy qismi bo`lib, insonlar va halk ho`jaligi obektlarini dushman tomonidan yalpi kirg`in qurollari qo`llanilganda, avariya holatlarida, shuningdek tabiy h`olat va bahtsiz hodisalar bo`lganda aholiga yordam berish uchun tashkil qilinadi. Dushman tomonidan yalpi kirg`in qurollari qo`llanilganda, shuningdek bahtsiz hodisalar, avariya h`olatlari, tabiy ofatlar bo`lganda aholini tibbiy taminlash uchun mamlakat sog`liqni saqlash sistemasi tarkibida Fuqorolar muhofazasi tibbiyot hizmati degan mahsus tashkilot tuzilgan. U sog`liqni saqlash sistemasining asosiy tarkibiy qismi bo`lib, aytib o`tilgan holatlarda muhim tibbiy masalalarni echish uchun mo`ljallaniladi. Bu vazifalarni bajarish uchun FMTH kuch va vositalar bilan taminlangan. FMTH tarkibiga rahbariyat, boshqarish organi h'arbiy bo`lmagan tuzilmalar va muassasalar kiradi.

Fuqorolar muhofazasi qo`rsida biz siz bilan dushman tomonidan qo`llaniladigan yadro quroli, kimyoviy qurol, biologik qurol qo`llanilganda hosil bo`lgan jarohatlanish o`choqlarining tibbiy – taktik h`arakteristikalarini bilan tanishamiz.

Ana shunday qurollar qo`llanilganda aholi orasida sanitar yo`qotishlar qanday bo`ladi va bu nimalarga bog`liq bo`ladi, aholini himoyalani darajasi qanday ana shular aniqlaniladi. SHuningdek ah`oli orasida samarali tibbiy tadbirlarni olib borishimiz uchun shikastlanish o`choqlarini tibbiy taktik h`arakteristikalarini bilan tanishamiz.

Sobiq sovet ittifoqi 1946 yilda yoppasiga qurolsizlanish, yadro qurolini ishlab chiqarmaslik, saqlamaslik, 3 oy ichida uni zapaslarini yo`qotish to`g`risida proektini taklif qilgan edi. Biroq hozirgi vaqtda ayrim davlatlar ana shu dahshatli qurol-yarog`larni ko`plab ishlab chiqarishga va yoppasiga zararlanish qurollarini sinab ko`rishga intildi va intilayotir. Zamonaviy qurol yarog` turlari juda hilma-hil, shunday eqan ular necha–necha yuzlab shaharlarni, milionlab kishilarni qirib tashlashi ham mumkin. SHu bilan birga hozir zamonaviy qurol turlari keng qo`llanilishi mumkin. Malumki o`tgan urushlarda odamlar asosan otilgan o`qdan zararlangan bo`lsalar, zamonaviy urushda yoppasiga nur hastalıkları, qo`yish kasallıkları, radiatsiyadan zararlanish hollari ko`proq yuz beradi. Zah`arli moddalar va biologik qurollar qo`llanilishi milionlab odamlarni qirilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtda o`nlab davlatlar: AQSH, Rossiya, Angliya, Frantsiya, Hitoy va boshqa davlatlar ko`plab yadro zahirasiga ega. Ommaviy kirg`in qurollari raketalar, samolyotlar, tashlanadigan aviobombalar, artileriya snaryadlari, minalar, torpedalar va h`arbiy texniqaning hozirgi taraqqiyot darajasiga mos boshqa turdagi vositalar ko`rinishida ishlatilishi mumkin. Kelgusi jahon urushi (Agarda NATO davlatlari shunday urush boshlashga jurat etsalar) raketa yadro urushi bo`lishi aniq. Buning zararlovchi tasiriga teng keladigan qurol yo`q. Bu urushda asosiy shikast etkazuvchi vosita sifatida esa turli klassdagi raketalardan foydalaniladi. SHunday eqan tibbiy xizmatdagi kishilardan davolash evakuatsiya choralarini ko`rish, tibbiy yordam ko`rsatishga oid amaliy ko`nikmalarni puhtalik bilan egallash talab qilinadi. Bundan tashqari yuqorida tilga olingan zamonaviy qurollardan odamlarni muhofaza qilish, odamlarga sanitariya nuqtai nazaridan ishlov berish, shuningdek zah`arli moddalarni aniqlay bilish masalalari h`am muhim ah`amiyat kasb etadi. Ana shunday qurollar qo`llanilganda himoyalanih printsiplarini o`rgatadigan fan bu fuqorolar muhofazasi h`isoblanadi.

Fuqorolar muhofazasi tashkiloti bu halq ho`jaligining hamma obektlarida jumladan sog`liqni saqlash sistemasida ham mudofaa sistemasi tomonidan tashkil o`tilinadi.

Fuqorolar muhofazasi tashkilotining asosiy vazifalariga qo`yidagilar kiradi:

-Aholini dushmanning yalpi qirg`in qurollaridan va zamonaviy hujum qurollaridan himoya qilish.

-H`arbiy sharoitda halq ho`jaligi tarmoqlarini ishini kuchaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni olib borish.

-SHikastlanish o`choqlarida, tabiiy ofat rayonlarida, yirik avariya h`olatlarida kechiktirib bo`lmaydigan qo`tqaruv ishlarini olib borish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun FM bir qator tadbirlarni olib borishi kerak bo`ladi. Ah`olini yalpi qirg`in qurollaridan himoya qilish uchun himoya inshootlari ko`riladi, shahsiy himoya vositalari to`planadi, himoya vositalarini to`g`ri ishlatish bo`yicha, tibbiy yordam ko`rsatish va ah`olini yirik shah`arlardan shah`ar ortiga evakuatsiya qilishga tayergarlik ishlari bo`yicha aholini o`qitish ishlari olib boriladi.

H`arbiy sharoitda halq hujaligi obektlarini ishini ko`tarish maqsadida ana shu obektlar ishlab chiqaradigan mahsulotlarning sifati va sonini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar olib boriladi. Bunday tadbirlar qatoriga ishchilar va hizmatchilarni himoyalash uchun yashirinish joylari qurish, yadro qurollarning shikastlovchi omillaridan stanok va qurilmalarin himoya qilish, portlaydigan, yonadigan, kuchli tasir qiladigan zararli birikmalarni zahiralarni kamaytirish, gaz va elektr energiyalarni etarli bo`lishi uchun sharoit yaratish, texnologik jarayoni h`arbiy sharoitga moslab o`zgartirish kabilar kiradi.

Kechiktirib bo`lmaydigan qo`tqaruv ishlarini olib borish o`z tarkibiga fuqorolar muhofazasi organining boshqaruvini, kuch va vositalarini tayyorlashni ham oladi. Qo`tqaruv ishlari odamlarni qo`tqarish, shikastlanganlarga tibbiy erdam ko`rsatish va ularni shikastlanish o`chog`idan evakuatsiya qilish maqsadida olib boriladi.

Olib boriladigan qo`tqaruv ishlariga quyidagilar kiradi:

-SHikastlanish o`chog`ida va FM kuchlarining h`arakatlanish yo`llarida razvedka olib borish

- Yong`inni o`chirish
- Yiqilgan himoya inshootlarini ochib tashlash
- Odamlarni hafsiz joylarga chiqarish
- SHikastlanganlarga tibbiy yordam ko`rsatish va ularni shikastlanish o`chog`i atrofiga evakuatsiya qilish.

Fo`qqrolar muhofazasi tashkilotining faoliyati shartli 3 davrga bo`linadi: tinchlik davri, dushman hujum qilish havfi davri; dushman hujumini izini yo`qotish davri. FM ish faoliyatining bunday davrlarga bo`linishi har hil sharoitda qanday tadbirlar o`tkazish va ularni hajmini belgilab berish uchun kerak bo`ladi. FM tashkilotini tashkil qilishning asosiy printsipti bu agressiv davlatlar hujum qilganda ah`olini himoya qilish.

Tibbiyot instito`tlarida FM ning tashkiliy tuzilishi.

FM haqk ho`jaligining hamma obektlarida tashkil qilinadi, shu jumladan sog`liqni saqlash muassasalarida ham. SHuningdek dushman tomonidan qo`llaniladigan yalpi qirg`in qurollari va zamonaviy hujum vositalaridan o`z vaqtida himoyalash maqsadida, h`arbiy sharoitda tibbiyot instito`tlarining ishini yahshilash uchun sharoit yaratish va o`z vaqtida qo`tqaruv ishlarini olib borish maqsadida tibbiyot instito`tlarida h`am FM tashkiloti tashkil qilinadi.

Instito`t FM tashkilotining nachalniki rektor bo`ladi. FM tashkilotini tashkil qilish, uning tuzilmalarini tayerlash va FM tadbirlarini o`tkazish uchun u asosiy javobgar shahs h`isoblanadi. Tibbiyot instito`tining FM nachalniki Sog`liqni saqlash ministrligi FM nachalnikiga va shu instito`t joylashgan territoriya FM nachalnikiga bo`ysunadi. Instito`t FM nachalnikining bo`yrug`i bilan material-tehnika taminot, evakuatsiya bo`yicha o`rinbosari tayinlanadi. Bo`lardan tashqari tezqor guruh va evakuatsion komissiya tuziladi. Evakuatsiya komissiyasining raisi bitta prorektor bo`ladi.

FM ning tashkiliy tuzilishining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: rahbariyat, shtablar, hizmatlar, evakuatsiya komissiyasi va FM kuchlari.

Rahbariyat bu har hil darajadagi FM nachalniklari bo`lib ular FM ning ahvoliga va dushman tomonidan yalpi kirg`in qurollari qo`llanilganda ah`olini va halq ho`jaligini himoya qilish uchun olib boriladigan tadbirlarning bajarilishi uchun javobgar shahs h`isoblanadi. Dushman hujum qilgan sharoitda ular ah`oliga habar berish, himoya qilish va hujum qoldirgan izni bartaraf qilish chora tadbirlarini yuqoridagi nachalniklarning bo`yrug`ini ko`tmasdan olib borishga javobgar bo`ladilar. FM tuzilmalariga ular to`g`ridan to`g`ri yoki shtab orqali rahbarlik qiladilar. Har bir FM tashkilotida shtab tashkil qilinadi va u boshqaruv organi bo`lib h`amma amaliy ishlarning tashkilotchisi h`isoblanadi. SHtab ishlari FM nachalnikining bo`yrug`i bilan amalga oshiriladi. FM sining ish faoliyati davrida mahsus ishlarni bajarish uchun mahsus hizmat turlari tuziladi. Baza bor yo`qligi va mahalliy sharoitga bog`liq holda FM nachalnikining bo`yrug`i bilan FM ning quyidagi hizmat turlari tuzilishi mumkin:

- yashirinish joylari
- aloqa bo`limi
- yong`inga qarshi bo`lim
- tibbiy bo`lim
- injenerlik bo`limi

-radiatsiyaga va kimyoviy qurolga qarshi himoya bo`limi

-transport, komunal texnik, jamoat tartibidagi ko`rikchi, ovqatlanish, o`simlik va hayvonlarni himoyalash xizmat turlari tuzilishi mumkin. Har bir xizmat turi o`zini mahsus xizmatini bajarish uchun o`z kuchi va vositalariga ega bo`ladi. Bu xizmatlarni qorhona rahbariga bo`ysunadigan shtab tashkil qiladi. Bu xizmatlarning nachalniklari ularni tashkil qilgan qorhonaning rahbari h`isoblanadilar. Xizmat nachalniklari FM va shtab nachalniklari bilan tadbirlarni rejalashtirishda qatnashadilar.

FM kuchlariga tuzilmalar, muassasalar va FM ning h`arbiy qismlari kiradi. Ular asosan yalpi qirg`in qurollari qo`llanilganda, tabiiy ofatlar, bahtsiz hodisalar yuz berganda ah`oliga yordam berish uchun tashkil qilinadi.

-FM kuchlarining asosini FM ning h`arbiy bo`lmagan tuzilmalari tashkil qiladi. Ular halq hujaligi obektlarida ishchi va hizmatchilardan tashkil qilinadi. Bunday tuzilmalarda ishlashga erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar 16 yoshdan 55 yoshgacha qabo`l qilinadi. Tuzilmalarga invalidlar 1 va 2 guruh, homilador allar, 8 yoshgacha bolasi bor bo`lgan ayollar ishga olinmaydi.

Tuzilmalar ikki hilda bo`ladi: umumiy turdagi va xizmat tuzilmalari. Umumiy turdagi tuzilmalar FM kuchlarining asosiy yadrosi bo`lib, o`choqda kechiktirib bo`lmaydigan qo`tqaruv ishlarini olib borish uchun tayinlaniladi. Umumiy turdagi tuzilmalarga qo`tqaruv otryadlari, malumot to`plovchi otryadlar kiradi.

Hizmatdagi tuzilmalar shikastlanish o`choqlarida mahsus vazifalarni bajarish uchun mo`ljallaniladi. Ularga aloqa bo`limi, yong`inga qarshi komanda, zararsizlantirish komandalari, avtokalonna, jamoa tartibidagi qo`riqlash komandalari kiradi. Qishloq ho`jalik obektlarida o`simlik va hayvonlarni himoya qilish guruhlari ham tuziladi. Bo`ysunishi bo`yicha tuzilmalar obektga oid va territoriyaga oid tuzilmalarga bo`linadi.

Obektga oid tuzilmalar ana shu obektning FM nachalnikiga bo`ysunadi va ana shu obektga qo`tqaruv ishlarini olib boradi. Territoriyaga oid tuzilmalar ana territoriya FM nachalnikiga bo`ysunadi va ana shu territoriyada qo`tqaruv ishlarini olib boradi.

Tuzilmalarning bir qismi o`rmon yong`inlariga qarshi qo`rashish uchun tayyor qilib qo`yiladi. Yana bir qismi esa bahtsiz hodisa, tabiiy ofat, katta avariyaarning izlarini bartaraf qilishda qo`tqaruv ishlarini olib borish uchun tayer qilib qo`yiladi.

FM ning h`arbiy qismlari ko`proq tashkillashgan kuch bo`lib eng og`ir uchastkalarda qo`tqaruv ishlarini olib borish uchun mo`ljallaniladi.

Evakuatsiya komissiyasiga obekt rahbarlarining o`rinbosarlari boshchilik qiladilar. Evakuatsiya komissiyasi zimmasiga dushman hujum qilish havfi bo`lganda ah`olini katta shah`arlardan qishloqjoylariga ko`chirishni rejalashtirish va amalga oshirish ishlari yuqlatiladi. Evakuatsiya qilinganlarni qabo`l qilish, kerakli narsalar bilan taminlash uchun qishloq va sovhozlarda qabo`l qiluvchi komissiyalar tashkil qilinadi.

**Maruzaning taminlanishi:**

-mavzu bo`yicha jadvallar

-mavzu bo`yicha shemalar

### **Tekshirish uchun savollar:**

- FM tashkilotining tayinlanishi tarkibiy tuzilishi va vazifalarini ayting
- FM ning tibbiyot instito'larida tarkibiy tuzilishini tushintirib bering
- FM ning aholini yalpi qirg'in quollaridan himoya qilish uchun olib boradigan tadbirlari nimalardan iborat
- Kechiktirib bo'lmaydigan qo'tqaruv ishlari deganda nimalarni tushinasiz
- FM ning tibbiyot instito'larida tashkiliy tuzilishini ayting
- FM ning tibbiyot instito'laridagi rahbariyatiga kimlar kiradi

**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4.**

### **Ma'ruza №2**

**Mavzu: SHikastlanish o'choqlarining tibbiy-taktik h'arakteristikasi**

#### **Mavzuning maqsadi:**

- YAlpi kirg'in quollari va shikastlanish o'chog'lari haqida tushunchaga ega bo'lish
- YAlpi kirg'in quollaridan hosil bo'lgan shikastlanish o'chog'larini turlarini bilish
- YAlpi kirg'in quollarini ta'sir qilish omillari va yo'llarini bilish
- YAlpi kirg'in quollari ta'sirida yuzaga keladigan sanitar yo'qotishlar va kasalliklarni bilish

#### **Kutilayotgan natijalar: ta'labalar ma'ruza eshitgandan keyin bilishlari kerak:**

- YAlpi qirg'in quollarini va ular qo'llanilganda hosil bo'lgan shikastlanish o'choqlarining turlarini
- YAdro quolining shikastlovchi omillari shikastlanish o'chog'ining zonalarini va undagi tahminiy sanitar yo'qotishlar miqdorini
- Zah'arlovchi moddalarning turlari organizmga tushish yo'llari qo'llanilish h'olatlari va kimviy zararlanish o'chog'ining turlarini
- Bakteriologik quolning o'ziga hos hususiyatlari turlari va ish yo'llarini

#### **Ma'ruza rejalari:**

- YAdro quolini shikastlovchi omillari va shikastlanish o'chog'ining tibbiy taktik h'arakteristikasi
- Kimyoviy quol turlari shikastlanish o'chog'ining tibbiy taktik h'arakteristikasi
- Biologik quol shikastlanish o'chog'ining tibbiy taktik h'arakteristikasi

### **O'qituvchining №2 ma'ruza bo'yicha izohi**

Kimyoviy zararlanish o'chog'i deganda kimyoviy quol ta'siriga uchragan barcha odamlar hayvonlar ob'ektlar inshootlar texnikalar atmosfera o'simliklari bo'lgan territoriya tushuniladi. Kimyoviy zararlanish o'chog'ining o'ziga hos hususiyati qaysi zah'arlovchi



modda qo'llanilganligiga shuningdek uni qo'llash usuliga, yil fasliga, ob- havo sharoitiga ba'zi bir boshqa omillarga bog'liq.

Kimyoviy zararlantirish o'chog'ining katta kichikligi eng avvalo dushman tarafidan zah'arlovchi moddalarning qanday agregat holatda qo'llanilishi, shuningdek qilingan hujumning kuchi bilan belgilanadi. Zah'arlovchi moddalarni mo'ljallagan joyga etkazish uchun katta kalibrdagi raketalar va aviobombalar qo'llanilgan taqdirda, kimyoviy zararlantirish o'choqlari juda katta maydonlarda paydo bo'ladi.

Dushman tomonidan zah'arlovchi moddalar suyuq tomchi holatda qo'llanilganda zararlantirish o'chog'ining maydoni dastlabki vaqtda ancha kichik bo'ladi. Agar zah'arlovchi modda havoning er usti qatlamida Bug` yoki tuman holda tursa, u holda zararlantirgan bo'lo't havo oqimi bilan birga shamol esayotgan tomonga qarab esadi. Soatiga 3-6 km tezlikda esayotgan kuchsiz shamolda havo oqimi tik ko'tarilmasa, zah'arlantirgan bo'lo't zah'arlantirish hususiyatini saqlagan holda 20-50 km masofagacha so'zib borishi mumkin. Demak birlamchi zararlantirish o'chog'iga nisbatan shamol esayotgan tomondagi vaqt o'tishi bilan oqib kelayotgan zah'arlovchi moddalar oqimiga duch kelishi mumkin. Bunda kimyoviy zararlantirish o'chog'i kattalashadi.

Kimyoviy zararlantirish o'chog'ining barqororligi qo'llanilgan zah'arlovchi moddalarning turi va uning qo'llash usuli bilan belgilanadi.

Beqaror kimyoviy zararlantirish o'chog'i zah'arlovchi modda gaz, bug` tuman holda qo'llanilganda hosil bo'ladi. Beqaror kimyoviy zararlantirish o'chog'i zah'arlantirish hususiyatini 3-6 soat mobaynida saqlab turadi, shundan keyin o'choqda bo'lish havfi juda kamayadi. Protivogazni signal bilan yoki tegishli habar berilgandan keyin echish kerak.

Beqaror zararlantirish o'chog'i dushman tomonidan chidamli zah'arlovchi moddalarni suyuq tomchi holda yoki yopishqoq suyuqlik holda qo'llanilgan taqdirda hosil bo'ladi. Yil fasliga ob-havo sharoitiga va joyning rel'efiga qarab zah'arlovchi moddalar zah'arlantirish hususiyatini bir necha haftagacha va hatto oylargacha saqlab turishi mumkin.

Zah'arlovchi moddalar havo ochiq, issiq kunda, o't-o'lanlar bo'lmagan joyda tezroq bug'lanadi. Hatto V gazlar guruhidagi juda chidamli zah'arlovchi moddalar h'am bunday sharoitlarda zah'arlantirish hususiyatini 1-3 so'tka mobaynida ushlab turadi. Bunda shuni nazarda to'tish kerakki, zo'r berib bug'lanish natijasida zararlantirgan terri toriya ustidagi havoda zah'arlovchi moddalar bug'ining miqdori juda ko'payib ketishi mumkin. Havo sovuq bo'lo'tli bo'lganda, o't o'lanlar qalin joyda yoki o'rmonzorlarda suyuq-tomchi holda qo'llanilgan zah'arlovchi moddalar ancha o'zoq vaqtga qadar saqlanib turishi mumkin.

Hozirgi vaqtda kimyoviy zararlantirish o'chog'i to'rt turga bo'linadi.

Tez ta'sir qiladigan zah'arlovchi moddalar hosil qilgan kimyoviy zararlantirish o'chog'i birinchi daqiqalarda ko'p kishilarni zararlantirishi, klinik simptomlarni jadallik bilan rivojlanishi va ular ko'p sanitar yo'qotishlar vujudga kelishi bilan ta'riflanadi. Bu sharoitda shahsiy himoya vositalarini o'z vaqtida kiyish, zararlantirish o'chog'ida ziddi zah'arlar va himiyaga qarshi individual paketlar yordamida o'ziga va bir biriga tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari katta ah'amiyatga ega.

Sekin ta'sir qiladigan zah'arlovchi moddalar hosil qilgan kimyoviy zararlantirish o'chog'i asta sekinlik bilan sanitar yo'qotishlarning jang maydonida rivojlanishi bilan ifodalanadi. Bu

sharoitda tibbiy xizmat kuchlari va vositalarini tashkil qilishda, tibbiy saralash o`tkazish va zararlangan kishilarga birinchi shifoqorgacha bo`lgan tibbiy yordam ko`rsatish hamda evakuatsiya tadbirlarini shoshilmasdan o`tkazishga imkoniyat yaratilgan bo`ladi.

CHidamli zah`arlovchi moddalar zarar etkazish hossasini bir necha soatgacha saqlab oladi. SHu sababli zararlanish o`chog`ida kishilarning ust boshlari, yara bog`lamlari zah`arlovchi moddalarni o`ziga singdirib olish hususiyatiga ega. Zararlanish o`chog`ida h`arbiy hizmatchilar va zararlangan kishilarga qisqa vaqt ichida sanitar ishlovini o`tkazish kerak bo`ladi.

YAdro quolini shikastlovchi omillari quyidagilardan iborat:

- portlash to`lqini yoki zarba to`lqini
- yorug`likning nurlanishi
- yorib kiruvchi radiatsiya
- joylarni zararlaydigan radiaktiv moddalar
- elektromagnit impul's

Zarba to`lqini portlash markazidan h`amma tomonga tovush tezligidan h`am katta tezlikda tarqaladigan, juda katta bosimda siqilgan havo zonasidan iborat. Siqilgan havo zonasida hosil bo`lgan eng katta havo bosimi va atmosfera bosimi orasidagi bosimining farqi zarba to`lqini frontidagi yuqori bosimni tashkil etadi.

Zarba to`lqini yadro portlashi vaqtidagi asosiy shikastlovchi omil bo`lib h`isoblanadi va jami portlash energiyasining tahminan 50% shu omilga to`g`ri keladi.

Zarba to`lqinidan shikastlanish 4 darajaga bo`linadi. Birinchi daraja engil shikastlanish. Bunday shikastlanganlarda asosan funktsional bo`zilishlar: garang bo`lib qolish, eshitish qobiliyatining pasayishi, bosh aylanishi, no`tq bo`zilishi, ayrim hollarda miyaning yopiq shikastlanishi ko`zatiladi.

Ikkinchi daraja-o`rta darajadagi shikastlanish. Bunday shikastlanganlarda asosan ichki a`zolarning zararlanishi ko`zatiladi. Og`iz, burun, quloqdan o`rtacha qon ketishi paydo bo`ladi. Tayanch-suyak sistemasida mushak paylarining o`zilishi va sinishi ko`zatiladi.

Uchinchi daraja og`ir shikastlanish. Bunday shikastlanganlarda shikastlanish simptomlari yaqqol ko`rinadi. Ularda bir soatdan bir necha so`tkagacha hushdan ketish hollari ko`zatiladi.

To`rtinchi daraja o`ta og`ir shikastlanish. Bunday shikastlanganlarda h`ayotiy muhim a`zolar funksiyasining bo`zilishi, hushdan ketish, qon aylanishi va nafas olishdagi bo`zilishlar bilan nomoyon bo`ladi.

#### **Bakteriologik qurol qo`llanilganda hosil bo`lgan shikastlanish o`chog`ining tibbiy taktik h`arakteristikasi**

Bakteriologik qurol bu odamlarni qishloq ho`jalik mahsulotlarini va hayvonlarni zararlash uchun qo`llaniladigan patog`en mikroorganizmlar, ularni toksinlari va mo`ljalga etkazuvchi vosita.

Bakteriologik qurolning o`ziga hos hususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Juda kam miqdorda ko`p odamni zararlashi
2. Har bir yuqumli kasallik uchun yashirin davrning borligi
3. YUqumli kasallikning kasal odamdan sog` odamga yuqishi

4. Ta'sirining davomliligi, ko'pgina spora hosil qiluvchi mikroorganizmlar o'zoq vaqt tashqi muhitda saqlanadilar. Ko'pgina mikroorganizmlar o'tkazuvchilarda h'am o'zining hayot faoliyatini davom qiladilar, m-n: chuma ko'zgatuvchisi burga organizmida bir yilga yaqin yashaydi.

5. Topishning qiyinligi. Radiaktiv va zah'arli vositalarni tashqi muhitda sifat va miqdor jihatidan aniqlash asboblari bo'lsa bakteriologik qurolni va uni turini aniqlash uchun asbobning yo'qligi.

6. Tanlab ta'sir qilishi. M-n: o'simliklarni zararlash uchun (fitofloroz), hayvonlarni zararlash uchun alohida (krupnaya rogatog'o skota) faqat odam uchun (h'olera, chinchechak). Dushman ko'proq odamlarni h'olok qiladigan yoki tarkibdan chiqaradigan ko'zgatuvchilarni qo'llaydi.

7. Kimyoviy va yadro qurollarini ishlab chiqishga qaraganda bakteriologik qurolni ishlab chiqishni nisbatan arzonligi.

Bundan tashqari bu qurolning o'ziga hos xususiyatlaridan yana: biologik qurolning himla hilligi; bir vaqtning o'zida bir qancha kasallik ko'zgatuvchisini qo'llash mumkinligi; mahsus bo'lmagan o'tkazuvchilarni qo'llash.

Epidemiologik havfi bo'yicha bakteriologik va virusologik agentlar 3 ta guruhga bo'linadi:

1. YUqori qantog'iozli;
2. Kam kontagiozli;
3. Kontagiozsiz.

Epidemiya ko'zg'ash maqsadida yuqori kontagiozli kasallik ko'zgatuvchilarini h'arbiy holatda dushman tomonidan qo'llanilishi ishonchli h'isoblanadi.

Kasallikni tarqalishi uchun uchta omil bo'lishi kerak:

1. Infektsiya o'chog'i
2. YUqish mehanizmi
3. YUqtiradigan aholi

Bunday qonuniyatlarni bilish epidemiya bilan qo'rashish usullarini anglashga yordam beradi. Bo'lar orasida muhimlari: ko'zgatuvchilar va ularni olib yuruvchilarni o'ldirish maqsadida dezinfektsiya, dezinfektsiya va deratizatsiya o'tkazish; oziq ovqatlar va suvni biologik vositalardan saqlash uchun tadbirlar; umumiy va shahsiy gigiena qoidalariga rioya qilish; yuqtirishni oldini olish uchun shahsiy himoya vositalarini qo'llash; dushman tomonidan qo'llanilgan ko'zgatuvchini turiga qarshi aholini qarshiligini oshirish maqsadida spetsifik va nospetsifik profilaktika tadbirlarini olib borish.

SHuni ham esda to'tish kerakki dushman epidemiyaga qarshi tadbirlarni murakkablashtirish maqsadida har hil usullarni qo'llashi mumkin. Bu qurolni qo'llash usuli quyidagilardan iborat:

1. Bakterial aerozollar holatida
2. Zararlangan o'tkazuvchilarni qo'llash bilan
3. Diversiya usulida

Eng havflisi bakterial qurollarni aerosol holatida qo'llash h'isoblanadi. Cho'kadigan mikroorganizmlar oziq-ovqatlarni, suvni, tuproqni, texnika, inshootlarni zararlab 2 chi zararlanish o'chog'ini paydo qiladi.

SHuni ham esda to'tish kerakki, hamma zararlangan terriyoriya bir hilda epidemiologik ah'amiyat kasb qilmaydi. Asosan odamlar ko'p yashaydigan va ishlaydigan shaharlar, aholi punktlari, halq ho'jaligi ob'ektlari epidemiologik ah'amiyat kasb qiladi.

Odamlar kam yashaydigan terriyoriyada epidemik jarayon rivojlanmaydi va u erda epidemiyaga qarshi tadbirlarni olib borish shart emas. SHuning uchun bu terriyoriya va o'zi zararsizlanishi uchun qoldiriladi. Epidemiyaga qarshi chora tadbirlar odamlar ko'p yashaydigan joylarda olib boriladi. YUqirishni aerosol usulida kasallik shu terriyoriyada tezda rivojlanadi ko'p sonli odamlarda va og'ir kechadi.

Tashuvchilarni qo'llaganda terriyoriya chegarasi aniq bo'lmaydi va kasallik asta sekinlik bilan rivojlanadi.

#### Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Mavzu bo'yicha jadvallar
- Mavzu bo'yicha shemalar

#### Tekshirish uchun savollar:

- Yadro qurolining turlari, mo'ljalga etkazuvchi vositalar va uning shikastlovchi omillarini ayting;
- yadro qurolidan shikastlanish o'chog'ining tibbiy taktik h'arakteristikasi va tahminiy sanitar yo'qotishlarni ayting;
- kimyoviy qurol turlari va organizmga tushish yo'llarini tushintiring;
- kimyoviy quoldan hosil bo'lgan shikastlanish o'chog'i, uning turlari va tahminiy sanitar yo'qotishlarni aytib bering;
- biologik qurol, o'ziga hos hususiyatlari va mo'ljalga etkazish vositalari to'g'risida gapirib bering;
- bakteriologik quoldan hosil bo'lgan shikastlanish o'chog'larining tibbiy taktik h'arakteristikasini tushintirib bering.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4

Ma'ruza №3

Mavzu: Aholini yalpi qirg'in quollaridan va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy printsip va vositalari.

#### Mavzuning maqsadi:

- Yalpi kirg'in quollaridan himoyalani sh inshootlari, turlari va ularga qo'yiladigan talablarni bilish

-yalpi qirg'in quollaridan himoyalani sh vositalari, turlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish

- Respiratorlar, engil himoya kostumlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish
- Himoyalani sh vositalarini qo'llash va saqlash qoidalari bilan tanishish

**Kutilayotgan natijalar:** -Talabalar ma'ruza eshitgandan keyin bilishlari kerak:

-Himoyalani sh inshootlarining turlari, ularga qo'yiladigan talablar va foydalanish qoidalarini

- Protivogazlar, ularning turlari, ulardan foydalanish qoidalarini
- Respiratorlar turlarini va ulardan foydalanishni
- Himoya kostumlari va ularni kiyish qoidalarini

**Ma'ruza rejalari:**

- Qollektiv himoya inshootlari
- Eng oddiy pana joylar
- Radiatsiyaga qarshi pana joylar
- YUqori nafas yo'llarini himoyalovchi vositalar
- Terini himoyalovchi vositalar

### O'qituvchining №3 ma'ruza bo'yicha izohi

Qollektiv himoya vositalariga radiaktiv, zah'arlovchi moddalar va bakterial vositalardan himoyalovchi mahsus jihozlangan injenerlik inshootlari va ob'ektlari kiradi. Ushbu inshootlar kishilarni yadro quroli, zah'arlovchi moddalar va bakterial vositalar hamda oddiy qurollar ta'siridan himoya qiladi.

Hozirgi vaqtda barcha himoya vositalari 5 ta guruhga bo'linadi:

- dala fortifikatsion inshootlari
- o'zok vaqtga mo'ljallangan fortifikatsion inshootlar
- mahsus foydalanish uchun qurilgan inshootlar
- h'arakatdagi ob'ektlar
- fuqoro mudofasi sistemasidagi inshootlar

Qollektiv himoya inshootlari kishilarni ommaviy zarar etkazuvchi qurollar ta'siridan to'liq saqlaydi va ular 3 hilga bo'linadi:

-yashirinish joylari – bu inshootlar germetik h'olda ko'rilgan bo'lib, ommaviy zarar etkazuvchi qurol- yadro zaryadi portlashidan hosil bo'lgan shikastlovchi omillardan hamda zah'arlovchi moddalar va bakterial vosita aerozollaridan to'liq himoya qiladi;

-radiatsiyaga qarshi pana joylar-ushbu inshootlar radiaktiv zararlanish paydo bo'lgan joylarda kishilarni radiatsion zararlanishdan himoya qiladi;

-eng oddiy pana joylar-urush vaqtida jang maydonlarida ushbu inshootlar hamisha qo'l ostida bor bo'lgan vositalar yordamida tarlaniladi.

YAshirinish joylari asosiy honadan va yordamchi honalardan, ya'ni kirish yo'llaridan, fil'trovchi ventilyatsion honalardan, sanitariya o'zelidan, qish vaqtida honadonlarni isitish uchun mo'ljallangan isitish honalaridan ayrim hollarda himoyalangan dizel qurilmasi va

artezian kudugi uchun mo`ljallangan honalardan iborat bo`ladi. Katta hajmdagi yashirinish joylarida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun hona ajratilishi mumkin.

Dala sharoitida qollektiv himoya vositalari sifatida engil yashirinish joylari va blindajlardan keng foydalaniladi. Engil yashirinish joylari ularni ishlatilishiga qarab turli hajmda bo`lishi mumkin. Eng oddiy yashirinish joylari vzvod bo`linmasi uchun mo`ljallangan joylar h`isoblanadi. Bu yashirinish joylari 8-10 kishiga mo`ljallangan bo`ladi. Lekin ba`zi hollarda qisqa muddatga 20-25 kishini joylashtirish mumkin. Ushbu yashirinish joylari qo`mondonlik punktlari, hamda tibbiyot punktlari uchun ham qurilishi mumkin.

YAshirinish joylarini ko`rishda qator qilib etkazilgan 10-15 sm qalinlikdagi to`sin-tahtalardan, temir-beton elementlaridan, metal prokatlardan va boshqa shu kabi materiallardan foydalaniladi. YAshirinuvcchi kishilar joylashtirilgan honalarga radiaktiv, zah`arlovchi moddalar va bakterial vositalar bilan zah`arlangan havo kirmasligi uchun barcha teshiklar germetik qilib yopiladi.

YAshirinish joylari odatda kamida ikkitadan kirish yo`liga ega bo`lib, ular qarama-qarshi tomonlarga joylashtiriladi. YAshirinish joylarining yo`laklari ko`p hollarda ikki shluzli tamburlar shaklida jihozlanib, ular asosiy honadan ajratilgan holda bo`ladi. Yo`lakning tashqi tomoniga mustahkam himoya eshik o`rnatiladi. Bunday eshik yadro zaryadi portlashining zarba to`lqinini to`sib qolish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda dala joylarni filtrlash ventilyatsiya apparatlari FVKP-M-2 va FVKP-2, FVA-100\ 50 va FVA-50 \25 bilan jihozlash mumkin. Filtrlash ventilyatsiya kompleksi FVKP-M-1: ikkita filtrlovchi yutuvchi FV-50 asbobi, ERV-49 markali ventilator, URV-1 havo sarfini ko`rsatuvchi moslama, ikkita suruvchi germetik eshik, havo o`tkazuvchi trubalar hamda germitizatsiya qilish uchun 100 m kv qog`ozdan iborat bo`ladi.

Filtrlash ventilyatsiya sistemasi 2 tartibda: ventilyatsiya va filtrlash ventilyatsiya tartibida ishlashi mumkin. Birinchi tartibda havo radiatsion changlardan tozalanadi, ikkinchi tartibda esa havo radiaktiv modalardan, zah`arlovchi moddalardan va bakterial vositalardan tozalanadi.

Hozirgi vaqtda yashirinish joylarida havo tarkibidagi ruhsat etilgan SO 2 miqdori 1 % ni tashkil qiladi. Ayrim hollarda SO 2 miqdorini h`arbiy hizmatchilarning jangovarlik xususiyatlarini bo`zmagan holda qisqa muddatga 2- 3 % gacha etkazish mumkin.

Radiatsiyaga qarshi pana joylar. YAshirinish joylaridan tashqari, dala sharoitida radiatsiyaga qarshi pana joylar ham ko`riladi. Bu inshootlar kishilarni radiaktiv moddalardan himoyalaydi va yorug`lik nurlanishidan himoya qiladi. Bundan tashqari radiatsiyaga qarshi pana joylar o`tuvchi radiatsiyadan, qisman yadro portlashining zarba to`lqinidan, zah`arlovchi moddalarning suyuq tomchisidan va bakterial vositalar aerozollarining bevosita kishilar terisiga tushidan saqlaydi.

Eng oddiy pana joylar. Ushbu yashirinish joylari kishilarni odatdagi o`kotar qurollardan, yondiruvchi moddalardan hamda ommaviy zarar etkazuvchi qurollar ta`siridan qisqa muddatga himoya qilish uchun mo`ljallangan.

Eng oddiy pana joylar sifatida jang maydonlarida handaklar, usti yopik handaklar, tirqishlar, blindajlar, ertulalar va boshqa chuqurliklardan keng foydalaniladi.

Usti ochiq handak. Handakning chuqurligi 170-180 sm, yuqori qismining eni 110-120 sm, pastki qisminiki 80 sm qilib etkiziladi. YAshirinuvchi kishilarga yadro zaryadi portlashi natijasida paydo bo`lgan zarb to`lqining shikastlovchi ta`sirini kamaytirish maqsadida u egri-bugri shaklda yoki burchak shaklida tayorlaniladi.

Usti yopiq handak. Bunday handaklar yadro qurolining barcha shikastlovchi omillaridan hamda zah`arlovchi moddalar, bakterial vositalar, odatdagi qirg`in qurollaridan himoya qilish imkonini ancha oshiradi.

### **SHahsiy himoya vositalari**

SHahsiy himoya vositalari filtrlovchi va ajratuvchi protivogazlar, respiratorlar va terini himoyalovchi vositalarga bo`linadi. Ularning hammasi o`zining himoyalash hususiyatiga ko`ra filtrlovchi va ajratuvchilarga bo`linadi. Filtrlovchi vositalarning himoyalash hususiyati havoni himoyalovchi materiallar orqali o`tkazishga asoslangan bo`lib, unda havo radiaktiv, zah`arlovchi moddalar va biologik vositalardan tozalanadi. Ajratuvchi vositalarning himoyalash hususiyati odam organizmini tashqi muhitdan to`la ajratishga qaratilgan bo`ladi. Nafas olish uchun kerak bo`lgan havo pnevmatog`en yoki pnevmatafor usulida ishlaydigan kislorod apparatlari yordamida olingan bo`ladi.

Foydalanishiga himoyalovchi vositalar quyidagilarga: umumharbiy, mahsus, fuqorolar uchun mo`ljallangan va sanoatda qo`llaniladigan vositalarga bo`linadi.

Nafas a`zolarini himoyalovchi vositalar.

Nafas a`zolarini himoyalovchi vositalarga filtrlovchi (PMG, PMG-2, SHR, GP-4U, PG-5, DP-6, DP-6M ), ajratuvchi (IP-4, IP-5) protivogazlar, respiratorlar R-2, SHB-1 va qo`l ostida bo`lgan vositalar kiradi.

RSH-4 markali umumh`arbiy filtrlovchi protivogaz. Bu protivogazlar nafas a`zolari, ko`z va yuzni zah`arlovchi, radiaktiv moddalar va bakterial vositalardan himoya qilishning asosiy vositasi bo`lib h`isoblanadi.

Protivogazlar filtrlovchi yutuvchi qorobka yuz qismi va haliachadan iborat.

Filtrlovchi yutuvchi qorobka nafas olinadigan havoni radiaktiv, zah`arlovchi moddalar va bakterial vositalardan tozalash uchun hizmat qiladi. U tsilindr shaklida bo`lib, qorobqaning tagida nafas olinadigan havo kirishi uchun teshik bo`ladi. Tozalangan havo qorobka qopqog`iga burab o`rnashtirilgan naycha orqali o`tib ketiladi. Filtrlovchi yutuvchi qorobka mustahkam bo`lishi uchun unda burama joylar bo`ladi. Qorbqaning ichki qismi havo oqimi bo`ylab to`tungga qarshi filtr va mahsus ishlov berib faollashtirilgan ko`mir solingan yutgich bilan ta`minlangan. Bu yutgich ko`pincha shihta deb ataladi.

To`tungga qarshi filtr-mahsus ingichka tolali asbest moddasi qo`shib preslangan qog`ozdan iborat bo`lib, filtrning yuzasini ko`paytirish maqsadida u qat-qat qilib bo`qiladi. SHu sababli uning yuzasi 200 sm kv ni tashkil qiladi.

Faollashtirilgan ko`mir protivogaz qorobkada asosiy yutuvchi vosita bo`lib h`isoblanadi. Faollashgan ko`mirning zah`arlovchi yutishi uning nechog`li govakligiga bog`liq.

Protivogazning yuz qismi, shlem niqob rezinadan tayyorlanib quyidagi qismlardan: ikkita yirik ko`zoynak, ko`zoynaklar terlashinin kamaytiruvchi ikkita obtekatel, shlem niqobni filtrlovchi yutuvchi qo`tichani birlashtiruvchi rezinali naydan iborat. SHlem niqob protivogaz qo`tisida tozalangan havoni nafas olish a`zolariga etkazadi, shuningdek yuz va ko`zni

radiativ, zah'arlovchi va bakterial vositalardan himoya qiladi. Hozirgi vaqtda shlem niqobning bir necha turi: SHM-41 ;SHM-41 M turlari mavjud.

### **Ajratuvchi protivogazlar**

Ajratuvchi protivogazlar nafas a'zolarini tashqi havodan tulik izolatsiya qiladi. Ajratuvchi protivogazlarning himoyalovchi hususiyati zah'arlovchi moddalarning turiga, radiativ va bakterial vositalarning havodagi konsentratsiyasiga bog'liq emas. Bunday protivogazlar havo tarkibidagi har qanday zah'arlovchi modda va ularning yuqori konsentratsiyasidan himoyalaydi va quyidagi hollarda ishlatiladi:

-havo tarkibidagi zah'arlovchi moddalarning juda yuqori konsentratsiyasi paydo bo'lganda;

-odatdagi filtrlovchi protivogazlar havo tarkibidagi bazi bir zah'arlovchi moddalarni zararsizlantira olmagan vaqtda;

-havo tarkibida kislorod qisman yoki to'liq bo'lmaganda;

-suv to'siqlaridan o'tishda yoki suv ostida ish bajarishda.

Ajratuvchi protivogazlar kishi nafas a'zolarini tashqi muhitdan to'liq ajratishga asoslangan bo'ladi, nafas olish uchun kerak bo'lgan havo pnevmatog'en yoki pnevmatofor usulda ishlaydigan apparatlar yordamida olingan bo'ladi. Pnevmatofor ajratuvchi protivogazlarda, nafas olish uchun olinadigan kislorod ballonlarda siqilgan bosimda bo'ladi, bunday apparatlarga KIP-5 kiradi. Pnevmatofor ajratuvchi protivogazlarga hozirgi vaqtda IP-4, IP-5 lar kiradi.

### **Respiratorlar**

Respiratorlar nafas a'zolarini radiativ va tuproq changlaridan va bakterial a'rozollardan himoya qiladi. Hozirgi vaqtda respiratorlardan R-2, va SHB-1 «Lepestok» keng qo'llanilmoqda.

R-2 respiratori uch qavatli materialdan tayyorlangan bo'lib, yuqori qavati penopoliuretandan yasalgan. Respirator himoyalovchi ranga bo'yalgan bo'ladi. Ichki qavati polimer polietelen bilan o'raladi. Havo o'tkazish uchun ikkita nafas oluvchi klapan o'rnatilgan, penopoliuretan va polietelen plyonka orasiga filtrlovchi polimer tolalaridan to'qilgan material qo'yiladi. Respiratorning yuqori qismida yarim niqobni kishi yuziga jipslashtirib joylashtirish uchun burun qisqich o'rnatilgan. Respirator yana boshga mahkamlash uchun egiluvchan ikkita rezina tasma bilan jihozlangan.

### **Terini himoyalovchi individual vositalar**

Terini himoyalovchi individual vositalar himoyalash hususiyatiga qarab filtrlovchi va ajratuvchilarga bo'linadi. Terini ajratuvchi himoya vositalari havo o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Ular zich yopiladigan va zich yopilamaydigan bo'lishi mumkin. Zich yopiladigan vositalar kishi tanasini berkitadi va zah'arlovchi moddalarning bug'i va tomchilaridan to'liq himoya qiladi. Zich yopilamaydigan vositalar esa faqat tomchi h'olidagi zah'arlovchi moddalardan himoya qiladi.

Terini himoya qiluvchi filtrlovchi vositalar ip gazlamadan tayyorlangan bo'lib, unga mahsus kimyoviy modda shimdiriladi. Bunda matoning havo o'tkazuvchanligi saqlanib qoladi, zah'arlovchi moddalar iplar orasidan o'tayotgan vaqtda yutiladi va neytrallanadi.



Terini himoya qiladigan ajratuvchi individual vositalarga umumh'arbiy himoya to'plami, plyonkali himoya kostumi kiradi. Terini himoyalovchi mahsus vositaga L-1 engil himoya kostumi kiradi.

Umumh'arbiy himoya to'plami himoya plashchi, himoya paypog'i hamda qo'lqoplaridan iborat bo'ladi.

Himoyalovchi to'plamdan foydalanish. Himoya to'plami uni qanday maqsadlarda ishlatilishiga qarab yoping'ich sifatida, plashch sifatida va kombinezon sifatida bo'ladi. Himoya vositalari safar h'olatida yig'ilgan bo'lib, ashelar solinadigan haltada yoki mahsus gilofga solingan tasmalar yordamida orqaga tashlab olib yuriladi.

**Ma'ruzaning ta'minlanishi:**

- Mavzu bo'yicha jadvallar
- Mavzu bo'yicha shemalar

**Tekshirish uchun savollar:**

- YAlpi qirg'in qurollaridan himoyalanish inshootlari turlarini tushintirib bering
- Engil yashirinish joylarini tuzilishini tushintirib bering
- Radiatsiyaga qarshi pana joylar va eng oddiy pana joylarni tushintirib bering
- Protivogazlarning turlari va tuzilishini tushintirib bering
- Respiratorlarni tuzilishini ayting
- Himoya kostumlarining tuzilishi va kiyish,echish tartiblarini aytib bering

**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4**

**Ma'ruza №4**

**Mavzu: Fuqorolarni fuqoro muhofazasi va favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasidagi o'qishlarini tashkil qilish.**

**Mavzuning maqsadi:**

- Aholiga yalpi qirg'in qurollari to'g'risida tushuncha berish
- Aholiga yalpi qirg'in qurollari to'g'risida habarga binoan qanday yo'l to'tishini o'rgatish
- Himoya inshootlari va shahsiy himoya vositalari to'g'risida tushintirish va ularni qo'llashni o'rgatish
- Aholiga jarohatlanganda o'z-o'ziga va o'zaro yordam ko'rsatish amallarini o'rgatish

**Kutilayotgan natijalar: Talabalar ma'ruza eshitgandan sung bilishlari kerak:**

- Aholini FM bo'yicha o'qitish shakllari va printsipalarini
- Aholini o'qitish guruhleri va har bir guruhni o'qitish talablarini
- Aholi FM bo'yicha o'qish davrida o'rganishi kerak bo'lgan amaliy ko'nikmalarni;

-Qo'rs tayergarligini o'tkazish tartibini.

**Ma'ruza rejalari:**

- O'qitishning shakllari va printsiplari;
- Rahbariyat tarkibini tayyorlash
- Harbiy bo'lmagan tuzilmalarni tayyorlash.

#### **O'qituvchining №4 ma'ruza bo'yicha izohi**

Zamonaviy urushlarda davlatning hayot faoliyatini hal qilish ko'pincha aholini moddiy boyliklarni va ishlab chiqarishni yalpi qirg'in quollaridan himoya qila bilishiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham tinchlik va harbiy holatlarda rahbariyatni fuqorolar muhofazasini, mamlakatning hamma aholisini ta'sirga tayor qilib qo'yish kerak bo'ladi. Bunday ishlarni olib borishda asosiy rolni umumdavlat mudofaa sistemasining tarkibiy qismi fuqorolar muhofazasi o'ynaydi. YA'lp quollardan himoyalani uchun aholining barcha guruhlari jalb qilinadi. Bo'lar: qolhozchilar, hizmatchilar, talabalar, o'quvchilar va ishlamaydigan aholi bo'lishi mumkin.

#### **O'qitish shakllari va printsiplari.**

Fuqorolar muhofazasi olib boradigan tadbirlari orasida muhim o'rinni aholini fuqorolar muhofazasi bo'yicha o'qitishni tashkil qiladi. Aholini o'qitishning tashkiliy printsiplaridan muhimi bu sistemaning ilmiyligidir. O'qitish aholini halq ho'jaligi ob'ektlarini yalpi qirg'in quollaridan himoya qilish, bahtsiz hodisalar, yirik avariylar, favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish bo'yicha olib boriladi.

YAna bir muhim printsiplaridan o'qitishni ongli ravishda faol olib borish, bunda o'qitish ko'rgazmali, sistemali, o'zlo'qsiz va kompleks holatda olib borilishi kerak.

O'qitishning asosiy shakllari: o'rgatish, trenirovka qilish, amaliy mashg'ulotlar olib borish, guruh mashqlari, ma'ruzalar, seminarlar va mustaqil ishlar. O'qitishda hamma aholi shartli ravishda guruhlarga taqsimlaniladi va har bir guruh uchun alohida o'qitishni olib borish shakllari va tayergarlik hajmi belgilanadi.

Aholini o'qitish terri toriya ishlab chiqarish printsiplarini h'isobga olga holda tashkil kqilinadi. M-n: moddiy ishlab chiqarish bilan band bo'lgan aholi ish joyida, o'qiydigan yoshlar o'qish joyida, hech qaerda ishlamaydigan aholi yashash joyi bo'yicha o'qitiladi. O'qitish halq ho'jaligi ob'ektlari, shahar, rayon, viloyat, o'lka, respublika fuqorolar muhofazasi nachal'niklarining rahbarligi ostida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda aholining hamma kategoriyalarini o'qitish uchun qo'llanilayotgan har hil shakl va usullar fuqorolar muhofazasini murakkab harbiy sharoitlarda tadbirlarni bajarish uchun tinchlik vaqtda tayyorlanishga imkon yaratadi.

O'qitish mashg'ulotlarini tashkil qilish, oli borish usullariga binoan aholi quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi:

- Fuqorolar muhofazasi rahbariyat tarkibi
- Fuqorolar muhofazasi harbiy bo'lmagan tuzilmalarining shahsiy tarkibi
- Tuzilmalarda bo'lmagan ishchilar, qolhozchilar, hizmatchilar
- Ishlab chiqarish bilan band bo'lmagan aholi

-O`quvchi yoshlar bo`lar: vo`zlvr talabalari, tehnikumlar, PTU, o`rta maktab o`quvchilari.

### **Rahbarlar va nachalniklar tarkiblarini tayyorlash**

Fuqorolar muhofazasi vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishi ko`p vaqtlarda rahbarlarning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajalariga ham bog`liq bo`ladi. Rahbar shahslarning FM bo`yicha tayyorgarligi fuqorolar muhofazasi qo`rsolarida, o`quv muassasalarida ishlab chiqarishdan tortib olib, shuningdek ish vaqtlaridan tashqari vaqtlarda olib boriladi.

O`qitishda muhim o`rinni qo`rs tayyorgarligi egallaydi. Fuqorolar muhofazasi qo`rsolari Respublikada, o`lkada, viloyatda, shah`arda, rayonda, bir qator ministrlklarda tashkil qilinadi.

Qo`rsda o`quv jarayoni tashkiliy va uslubiy ishlar Respublika fuqorolar muhofazasi nachalniklarining respublika fuqorolar muhofazasi qo`rsolari to`g`risidagi nizomda keltirilgan talablar asosida olib boriladi.

Fuqorolar muhofazasi qo`rsolari bilan bir qatorda malaka oshirish o`quv dasturlarida h`am rahbariyat, nachal`niklarni ham tayyorlaniladi. Bu o`quv muassasalarida FM bo`yicha o`qitish muddati bog`liq holda 20-40 soatni tashkil qiladi.

Gruppa bilan mashg`ulotlarni shu obekt nachalnigi uning muovini yoki FM shtabining ishchilari, shuningdek yuqoridagi FM shtablarining nachalniklari olib borishlari mumkin. Tuzilmalarning nachalniklarini FM bo`yicha tayyorlash umumiy va mahsus turda olib boriladi. Umumiy tayyorgarlik ishchilarni, hizmatchilarni, qolhozchilarni FM bo`yicha tayyorlash dasturi buyilda ish vaqtidan tashqari vaqtlarda olib boriladi.

Mahsus tay yorgarlik halq ho`jaligi obektlarida fuqorolar muhofazasining harbiy bo`lmagan tuzilmalarida mahsus tayyorlash dasturi asosida ish vaqtlarida olib boriladi. Bo`lardan tashqari har bir rahbar hodim respublika FM nachalnikining ko`rsatmalariga binoan respublika, o`lka, viloyat, rayon, shaharlarda o`quv yili boshida olib boriladigan 2-3 kunlik o`quv uslubiy yig`inlarda tayyorgarliklan o`tadilar

### **Fuqaro muhofazasining h`arbiy bo`lmagan tuzilmalarini tayyorlash**

Harbiy bo`lmagan tuzilmalarning shahsiy tarkiblarini FM bo`yicha o`qitish to`g`ridan to`g`ri halq ho`jaligi ob`ektlarida malum dastur asosida amalga oshiriladi.

Tuzilmalarni shahsiy tarkibini o`qitish umumiy va mahsus tayyorlash dasturi asosida olib boriladi. Umumiy tayyorlashda ishchilar, qolhozchilar va hizmatchilarni FM bo`yicha tayyorlash dasturi bilan tanishadilar.

Mashg`ulot tuzilmalarga kirmagan ishchi, hizmatchi va qolhozchilar bilan ish vaqtidan boshqa vaqtlarda tashkil qilinadi. Umumiy tayyorgarlik mashg`ulotlarini, mahsus tayyorgarlik mashg`ulotlarini mahsus tayyohlangan rahbarlar olib boradilar va tibbiy mavzular bo`yicha tibbiyot hodimlari olib boradilar.

Mahsus tayyorgarlik jarayonida tuzilmalarning shahsiy tarkiblari o`zlarining mulklari va jihozlarini ishlash tehnikasi, bu tehniqani qo`llash usullari va har hil h`olatlarda ishlatish hususiyatlari bilan tanishib chiqadilar. Mashg`ulotlar shu tuzilmalarning komandiri tomonidan ish vaqtda va ishdan bo`sh vaqtlarda olib boriladi.

Umumiy tayinlangan tuzilmalarning o`qishiga rahbarlik qilishga shtab nachalniki yoki umumiy tayinlangan tuzilmalarning komandirlari tayinlanadilar. O`quv mashg`ulotlarida

shahsiy tarkib quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashi kerak; asbob va instrumentlar, texnikalar bilan ishlash amallarini, jarohatlanganlarni izlash, tartib olish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish amallarini mo'qammal o'rganishi, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan avariya qo'tqaruv ishlarini aniqlashni bilishi kerak.

Tuzilmalarda turmaydigan ishchilar, qolhozchilar, hizmatchilarni o'qitish ishdan bo'sh vaqtlarda halq ho'jaligi obektida FM tayyorlash dasturi asosida olib boriladi. Mashg'ulotlar ishlab chiqarishga oid bo'lgan printsiplari asosida: tseh, bo'lim, uchastka va boshqqa tarkibiy qismlar bo'yicha olib boriladi.

Maqsad: Himoyalani va individual shahsiy himoya vositalarini qo'llashda ma'lum hajmda bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.

Ishlamaydigan aholini o'qitish ishlab chiqarishda va hizmatda bo'lmagan aholi uchun tuzilgan dastur asosida olib boriladi. O'qitish yashash joylarida suhbat va amaliy mashg'ulot shaklida olib boriladi. Mashg'ulotlarni ofitserlar, zapasdagi serjantlar, FM aktivistlari, qishloq joylarida bo'lsa, FM bo'yicha tayergarlikdan o'tgan 9-10 sinf o'quvchilari olib boradilar.

Bu kategoriya o'quvchilari quyidagilarni o'zlashtirib olishlari kerak: hozirgi zamon quollridan saqlanish usullarini va vositalarini, FM ning habar berish signallari qanday bo'lishini, shahsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini, shuningdek o'ziga va o'zaro yordam berish amallarini bilishlari kerak. Nachalniklar va FM shtablari o'qitishni va mashg'ulotlar o'tkazishni sistemali ravishda nazorat qilib turishlari lozim.

YOshlarni o'qitish malum muddat va hajmda reja va dastur asosida olib boriladi. Mashg'ulotlarni FM kafedrasini o'qituvchilari, harbiy rahbarlari olib boradilar. Studentlar FM ni yuqori qo'rsda 1 yil mobaynida o'tadilar. Bu vaqtda ular yalpi qirg'in quollaridan saqlanish usullarini h'arbiy sharoitda, halq ho'jaligi ishini oshirish yo'llarini, SNAVR o'tkazish yo'llarini, shuningdek FM tadbirlarini amalda bajarishga tayyorlanish bilan birga harbiy bo'lmagan FM tuzilmalari va hizmatlari nachalniklari sifatida bu tadbirlarga rahbarlik qilishga ham tayyorlanadilar.

**Fuqorolar muhofazasi bo'yicha obekt trenirovkalari.**

Obekt trenirovkalari halq ho'jaligining kichik obektlarida va o'quv yurtlarida olib boriladi va ularni harbiy sharoit vaqtlarida faoliyat ko'rsatishlari uchun tayyorgarlikning eng yuqori formasi hisoblanadi. Obekt trenirovkalarining muddati respublika FM nachalnigining direktivalariga muvofiq o'quv yiliga belgilanadi.

FM bo'yicha o'quv tadbirlarini olib borishda asosiy etiborni ahlokiy, siyosiy va psix'ologik tayergarlikka qaratish kerak. Aholiga FM bo'yicha o'quv tadbirlarini olib boranda buni umumiy tayergarlikning bir qismi ekanligini esda to'tish kerak.

**Ma'ruzaning taminlanishi:**

- Mavzu bo'yicha jadvallar
- Mavzu bo'yicha shemalar

**Tekshirish uchun savollar:**

-Aholini FM va favqolodda vaziyatlar bo'yicha o'qitishni printsiplari va shakllarini tushintirib bering.

- Rahbarlar va nachalniklarni FM bo`yicha tayyorgarligini tushintirib bering.
- Mahsus tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz.
- Aholini FM bo`yicha o`qishlarini kim tashkil qiladi va nazorat qiladi.

Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4

### Ma`ruza № 5

Mavzu: FM tibbiyot xizmatining tashkiliy tuzilishi. Davolash-evakuatsion taminot

Mavzuning maqsadi:

- FMTH uning tuzilishi va vazifalari haqida tushunchaga ega bo`lish;
- FMTH ning kuch va vositalarini bilish;
- FMTH ning kuchlarining tayinlanishi, tarkibi , vazifalarini bilish;
- Davolash evakuatsion taminot to`g`risida tushunchaga ega bo`lish.

Kutilayotgan natijalar: Talabalar ma`ruza eshitgandan so`ng bilishlari kerak:

- FMTH ning tarkibi va asosiy vazifalarini
- Birinchi tibbiy yordam qoerda, kim tomonidan olib borilishini va hajmini
- FMTH ning tuzilmalarining vazifalarini
- Davolash-evakuatsion taminotni tarkibi va vazifalarini

Ma`ruza rejalari:

- FMTH ni tashkil qilishning asosiy printsiplari
- FMTH ning tashkiliy tuzilishi va vazifalari
- FMTH ning kuch va vositalari
- Davolash-evakuatsion taminot

### O`qituvchining №5 ma`ruza bo`yicha izohi

Urush bo`lganda aholini tibbiy ta`minlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil qilish va olib borishga ta`sir qiluvchi FMTH xizmatining faoliyatida o`ziga hos bir qancha tomonlari ko`zga ko`rinadi. Ular quyidagilardan iborat bo`ladi:

1. Aholi orasida bir vaqtda ko`p yo`qotishlarning sodir bo`lishi, har hil h`arakter va og`irlikdagi jarohatlanishlarning bo`lishi.
2. Tibbiyot muassasalarining ishini to`htab qolishi va FMTH xizmati shahsiy tarkibida ham yo`qotishlar bo`lishi.
3. SHaharlarda va aholi yashash punktlarida tibbiyot muassasalarining bino va inshootlarining bo`zilishi va ular o`z navbatida tibbiy muassasalarning va tuzilmalarning ishini qiyinlashtiradi.

4. Katta territoriyaning zararlanishi, oziq-ovqat mahsulotlari va suvning radiaktiv, kimyoviy va biologik vositalar bilan zararlanishi mumkinligi

5. SHikastlanish o`choqlarida sanitariya epidemiologik holatning murakkablashuvi va FM sining evakuatsion tadbirlari bilan bog`liq holda epidemiologik havfning yuqori bo`lishi

6. Dushman hujumi izini hizmatning kuch va vositalari bilan bartaraf qilishing qiyinligi.

FMTH ni tashkil qilishning asaosiy printsiplari quyidagilardan iborat;

-FMTH hizmati faoliyat ko`rsatayotgan tibbiyot muassasalari bazasida tashkil qilinadi.

-FMTH da har hil o`choqlarda ishlay oladigan tuzilmalar tashkil qilinadi.

-Har bir tuzilma va muassasalari ma`lum bir ishni alohida bajarishga qaytadan taqsimlanadi.

-Kasallarga va jarohatlanganlarga birinchi yordam ko`rsatish uchun o`qitilgan aholi va SP va SD lari jalb qilinadi.

-FMTH sog`liqni saqlash sistemasida tuzilgan mahsus tashkilot bo`lib, dushman tomonidan yalpi qirg`in qurollari qo`llanilganda, shuningdek bahtsiz hodisalar, yirik avariyaalar sodir bo`lganda aholiga tibbiy hizmat ko`rsatish uchun ta`uqqil qilinadi.

-FMTH da quyidagi hizmatlar ko`rsatiladi: birinchi tibbiy yordam, vrachlik yordami, malakali va ihtisoslashuqgan tibbiy yordamlar ko`rsatiladi.

-FM tibbiyot hizmati zimmasiga quyidagi hizmatlar yuqlatiladi.

-Jarohatlanganlarga va kasallarga tibbiy yordamning hamma turini o`z vaqtida ko`rsatish va ularning sog`ligini va ish qobiliyatini tezroq tiklash maqsadida davolash, o`lim va invalidlikni kamaytirish.

-Aholi orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish tarqalgan vaqtda uni tezda bartaraf qilish.

-YAlpi qirg`in qurollari qo`llanilganda uni izini bartaraf qilish, FM ning harbiy bo`lmagan tuzilmalari va muassasalarin shahsiy tarkiblarini salomatligini saqlash.

#### **FM tibbiyot hizmatining tashkiliy tuzilishi.**

FMTH sog`liqni saqlashni territorial tashkilotlari tomonidan tashkil qilinadi.

FMTH ning tashkiliy tuzilishiga quyidagilar kiradi: rahbariyat, boshqarish organi, kuch va vositalari.

#### **Rahbariyat va boshqarish organi**

FMTH hizmatining nachalniki shu sog`liqni saqlash muassasining rahbari h`isoblanadi. Bo`lar bo`lishi mumkin Respublika sog`liqni saqlash ministri.

Sog`liqni saqlash bo`limlarinig mudirlari, qishloq joylarida markaziy rayon kasalhonalarining bosh vrachlari, halk ho`jaligi obektlarida FMTH nachalnigi anna shu obektning tibbiy sanitariya qismining bosh vrachi h`isoblanadi.

FMTH ning nachalnigi o`zidan yuqorigi FMTH nachalnikiga bo`ysunadi.

Boshqaruv organiga FMTH ning shtab iva bolnitsa bazasi boshqaruvi kiradi. FMTH shtabi tibbiy hizmat nachalnigi tomonidan FMTH ning kuch va vositalariga rahbarlik qilish uchun tuziladi.

FMTHshtabi tarkibiga quyidagi hizmatdagi shahslar kiradi: sog`liqni saqlash bo`lim mudirlarining o`rinbosarlari, bosh mo`tahhasislari, SES larning bosh vrachlari, qon quyish stantsiyalarining bosh vrachlari, aptek boshqaruvining bo`lim mudirlari, tibbiy tehnika

boshqaruvining nachalniklari FMTH shtabi rejalarini ishlab chiqadi va shahsiy tarkibning jangovor va mahsus tayyorgarligini tashkil qiladi va olib boradi. Kasalhona bazasi boshqaruvi shahar orqasidagi davolovchi muassasalarga rahbarlik qiladi. KBB respublika sog'liqni saqlash ministrining o'rinbosarlari, o'lka, viloyat sog'liqni saqlash bo'limlarinig o'rinbosarlari rahbarlik qiladilar.

### FMT hizmatining kuch va vositalari

FMTH –ning kuchlariga tibbiy tuzilmalar va tibbiy muassasalar kiradi. Tuzilmalar FMTH ning asosiy h'arakatlantiruvchi kuchlari h'isoblanadi. Ularga sanitariya postlari (SP); sanitariya drujinalari (SD); birinchi tibbiy yordam ko'rsatish otryadi; h'arakatdagi epidemiyaga qarshi otryad; ihtisoslashgan tibbiy yordam brigadasi; ihtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish otryadi; ihtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigada, h'arakatdagi yuqumli kasalliklar gospitali; epidemiologik razvedka guruhi kiradi. Bo'ysunishi bo'yicha FMTH tuzilmalari obektga oid ( SP va SD) va territoriyaga oid ( FMTH hizmatining qolgan hamma tuzilmalari) kiradi.

SP va SD qorhonalarda, muassasalar, qolhoz va sovhozlarda, mahsus bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlarida tashkil qilinadi. Mahsus dastur bo'yicha o'qitilgan ishchilar, hizmatchilar, qolhozchilar va talabalar tinchlik davrda h'am bahtsiz hodisalar va favqolodda vaziyatlar yuz berganda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallaniladi.

1. SP lari 4 ta kishidan tashkil topadi: nachalnigi va 3 ta sanitariya drujinachisi. Sanitariya postlarida quyidagi mulklar bo'ladi:

- sanitariya sumkasi
- sanitar nosilkalari
- shahsiy himoya vositalari

Sanitariya postlari tinchlik davrlarda qorhonalarda va muassasalarda «sog'liq burchaklari tashkil qiladilar. Radiativ moddalardan zararlanish o'chog'ida SP ning h'ar bir shahsiy tarkibi 1 soatda 10 ta yaradorga 1 chi tibbiy yordam ko'rsatishi kerak.

Sanitariya drujinachilari shikastlanish o'chog'ida yaradorlarni izlash va ularga 1 chi tibbiy yordam ko'rsatish, shikastlanganlarni transport vositalariga yuqlash joylariga olib kelish va yuqlashda qatnashishi, FM ning tibbiy muassasalarida ishlash uchun mo'ljallaniladi.

SD lari tarkibiga 24 kishi kiradi ular komandir, siyosiy qism o'rinbosar, aloqachi, shofyor va 4 kishidan iborat bo'lgan SD ning 5 ta zvenosi 4 tadan bittasi shu zvenoning komandiri h'isoblanadi. SD ga avtobus yoki yuq mashinasi beriladi. Mulklari sanitariya sumkalari, shahsiy aptekalar, shahsiy kimyoga qarshi paketlar, filtrlovchi protivogazlar, sanitar nosilkalar, suv uchun flyaga va boshqalar. SHikastlanish o'chog'ida Sandrujinalari, qo'tqaruv otryadlari, tibbiyot tuzilmalari va davolash muassasalari tarkiblarida ishlash uchun mo'ljallaniladi. YAdroviy va kimyoviy shikaslanish o'chog'ida 1 ta san drujinachi 1 soatda 50 ta yaradorga hizmat ko'rsatishi kerak, agar bakteriological shikastlanish o'chog'i bo'lganda 1 ta san drujinachilarga 1500 kishi ko'zatish uchun belgilanadi.

Birinchi tibbiy erdam qo'rsatish otryadi shikastlanganlarga 1 –chi vrachlik yordamini ko'rsatish uchun mo'ljallaniladi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish otryadi boshqaruv organi va 8 ta bo'linmadan iborat; qabo'l qilish, saralash, operatsiya, bog'lov, gospital, evakuatsiya,

qisman sanitariya ishlovi, tibbiy taminlash, laboratoriya, ho`jalik bo`limi. Birinchi tibbiy yordam ko`rsatish otryadining shtabida vrachlar, o`rta tibbiyot hodimlari va 2 ta sanitariya drujinasi bo`ladi. Otryadda tibbiy va sanitar ho`jalik mulklari radiostantsiya, h`arakatdagi elektrostantsiya, shahsiy himoya vositalari, dozimetrik apparatlar bo`ladi, yana avtotransport vositalari bilan ham taminlangan bo`ladi.

Ihtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatish brigadasi ( BSMP ) ilmiy tekshirish muassasalari bazasida, tibbiyot instito`tlarida, vrachlarni malakasini oshirish instito`tlarida va ihtisoslashgan tibbiyot markazlarida tuziladi. BSMP lar asosan shah`ar orti kasalxonalarida jarohatlanganlarga va kasallarga malakali va ihtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatishni yahshi yo`lga qo`yish uchun tuziladi. BSMP tarkibiga 5 ta odam ( 2ta vrach, 2ta medsestra va shofyor).

BSMP h`ar hil turdagi ihtisoslashga tibbiy yordam ko`rsatishni tabel vositalari bilan taminlangan.

Harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad (HEKO) San-epid stantsiya, Epidemiologiya instito`ti, mikrobiologiya va epidemiologiya bazalarida tashkil qilinadi. Asosiy vazifasi shikastlanish o`chog`ida epidemiyaga qarshi san-gigienik tadbirlarni tashkil qilish va olib borish, shuningdek aholini bakteriologik vositalardan himoyalash vositalarini tashkil qilish va olib borish. Tarkibida otryad boshqaruvi va 3 ta bo`lim, san epid lobaratoriya va dezinfektsiya bo`ladi. Otryad tarkibida bitta SD ishlaydi.

Ihtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigada tarkibiga 2 ta bo`lim kiradi: epidemiyaga qarshi va bakteriologik. Brigadani ishiga siyosiy qism bo`yicha nachalnik rahbarlik qiladi.

Harakatdagi yuqumli kasalliklar gospitali yuqumli kasalliklar kasalxonasi bazasida tashkil qilinadi. U asosan yuqumli kasalliklarni davolash uchun tayinlanadi. O`zining tarkibida gospital nachalnigi, siyosiy qism bo`yicha o`rinbosar. Material tehnik taminot bo`yicha yordamchi qabo`l qilish va tashhishlash uchun 2 ta davolovchi bo`lim. Bakteriologik laboratoriya, apteka, bo`ladi.

Epid, razvedka gruppasi San-epid stantsiya bazalarida, epidemiologik va mikrobiologik professiyadagi muassasalarda tashkil qilinadi. Guruh 4 ta kishidan tashkil topadi: epidemiolog, epidemiolog yordamchisi, lobarant. Guruh tashqi muhitdan sinama oladi va yuqumli kasalliklar o`chog`larida tekshiruvlar olib boradi.

Davolash-evakuatsiya taminoti bu yalpi qirg`in quollaridan shikastlanganlarga va aholiga yordam ko`rsatadigan ilmiy asoslangan tadbir yig`indisi hisoblanadi. SHu bilan birga bu sistemada jarohatlanganlar o`chog`dan davolash uchun evakuatsiya qilinadi. SHikastlanganlarga davolash-evakuatsiya taminoti asosida davolashni etapli olib borish etadi..

Tibbiy evakuatsiya deganda jarohatlanganlarni qabo`l qilish. Tibbiy saralash, tibbiy yordam ko`rsatish va davolash uchun ularni h`arakatlanish yo`llarida yoyiladigan tibbiy hizmatning kuch va vositalari tushiniladi. FMTH hizmatida 2 etapli davolash-evakuatsiya taminoti sistemasi qabo`l qilingan.

Bunday vaqtda tibbiy evakuatsiyaning birinchi bosqichi shikastlanish o`chog`ida yoki uning yaqinida eyilgan birinchi tibbiy yordam ko`rsatish otryadi, FM harbiy qismlarining tibbiy bo`linmalari, bir vaqtda saqlanib qolgan sog`liqni saqlashning davolash muassasalari.



Birinchi etapda jarohatlanganlarga birinchi vrachlik yordami ko`rsatiladi va ularni evakuatsiya qilishga tayyorlaniladi. Ikkinchi etapda bu kasalhona bazasi shahar tashqarisidagi davolash muassasalarining kompleksi hisoblanadi. Bu erda ularga malakali ihtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatiladi va ohirgi natijagacha davolaniladi.

**Ma'ruzaning taminlanishi:**

- Mavzu bo`yicha jadvallar
- Mavzu bo`yicha shemalar

**Tekshirish uchun savollar:**

- FMTH ni tashkil qilishning printsiplari va uning asosiy vazifalarini tushintirib bering
- FMTH ning kuch va vositalarini tayinlanishini tushintirib bering
- Birinchi tibbiy yordam ko`rsatish otryadi, tarkibi va vazifalarini ayting
- Davolash-evakuatsion taminot qabo'l bo`limining asosiy vazifalarin tushintirib bering.

**Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4**

### **Ma'ruza №6**

**Mavzu: Fuqorolar muhofazasi tibbiyot tuzilmalari va muassasalarini, shuningdek aholini fuqorolar muhofazasi vositalari bilan ta'minlash**

**Mavzuning maqsadi:**

- Tibbiy ta'minotni tashkil qilishning asosiy holatlarini o`rganish
- Tibbiy ta'minotni boshqarish organining asosiy vazifalarini o`rganish
- Tibbiy ta'minotni tashkil qilinishi va boshqarilishi to`g`risida tushunchaga ega bo`lish
- Tabel vositalar to`g`risida tushunchaga ega bo`lish.

**Kutilayotgan natijalar: Talabalar ma'ruza eshitgandan keyin bilishlari kerak:**

- Tibbiy ta'minotni tashkil qilishning asosiy holatlarini
- Tibbiy ta'minotni rahbariyatini
- Tibbiy ta'minlash boshqaruv organining asosiy vazifalarini
- Tibbiy ta'minotning tabel mulklarini
- Tibbiy ta'minotning sanitar ho`jalik mulklarini
- Tibbiy ta'minotning mahsus mulklarini
- Tibbiy mulklarning kategoriyalarini
- Tibbiy mulklarning manbaalarini

**Ma'ruza rejasi:**

- Tibbiy ta'minotni tashkil qilish va boshqaruvi
- Boshqaruv organining asosiy vazifalari

-Tibbiy mulklar turlari

### O`qituvchining №6 ma`ruza bo`yicha izohi

Fuqorolar muhofazasi tibbiyot xizmatida tibbiy ta`minotni tashkil qilinishi va faoliyati quyidagi asosiy holatlarga asoslanadi

-Tibbiy ta`minotni tashkil qilinishi FMTH ning tarkibiga va vazifalariga mos kelishi kerak

-FMTH shikastlanish o`chog`ida bo`lishi mumkin bo`lgan katta sanitar yo`qotishlar va bir qator davolash profilaktika va epidemiyaga qarshi tadbirlarni olib borish kerakligini hisobga olgan holda tibbiy vositalarni zapasini yaratishi kerak

-FMTH ning tibbiy ta`minotini tashkil qilish sog`liqni saqlash sistemasida faoliyat ko`rsatayotgan tibbiy ta`minot tashkilotiga mos kelishi kerak

Mana shu h`olatlariga mos h`olda FMTH da tibbiy ta`minotni boshqarish organi tashkil qilingan va unga quyidagi vazifalar yuqlatilgan:

-Tibbiy ta`minotni boshqarish organiga aptek boshqaruvni va tibbiy texnika boshqaruvini ham birlashtirish kerak. Bu boshqaruv organlari ihtiyorida apteka, sklad, baza va magazinlar bo`lishi kerak.

-Tibbiyot tuzilmalari va muassasalarini qon va uning preparatlari bilan ta`minlash uchun institutlar, qon quyish markazlari, bo`limlari jalb qilinadi.

-Apteka boshqaruvi FMTH ni tuzilmalari va muassasalarini dorilar, instrumentlar, bog`lov materiallari va boshqalar bilan ta`minlashiga javobgar hisoblanadilar.

FMTH muassasalarini tibbiy jihozlari, apparatlar, pribor ularni o`rnatish va remonti bilan ta`minlash tibbiy texnika boshqaruvi zimmasiga yuqlatiladi.

FMTH ning tibbiy tuzilma va muassasalarini aloqa vositalari, radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari va boshqa mahsus vositalar bilan ta`minlash FM shtabining FMTH shtabiga arizasi orqali amalga oshiriladi.

### Tibbiy ta`minotga rahbarlik qilish

-Respublikada-aptek boshqaruv va tibbiy texnika nachalniklari, respublikada FMTH nachalnikining tibbiy ta`minot bo`yicha yordamchilari.

-Viloyatda-FMTH nachalnikining yordamchilari bo`lgan aptekboshqaruvi va tibbiy texnika boshqaruvining zimmasiga yuqlatiladi.

-SHahar va rayonlarda shah`ar yoki rayon aptekalarining mudirlari ular o`z navbatida shah`ar, rayon FMTH nachalnikining yordamchilari hisoblanadilar.

-FMTHning muassasalarida va tuzilmalarida apteka nachalniklari, apteka nachalniklari tayinlanmagan tuzilmalarda tuzilma nachalnikining bo`yruqi bilan tayinlangan kimsa javobgar bo`lishi mumkin.

### Tibbiy vositalar bilan ta`minlashni boshqaruv organining asosiy vazifalari:

-Harbiy sharoitda FMTH muassasalarini va tuzilmalarini tibbiy ta`minlash planini ishlab chiqish

-FMTH muassasalari va tuzilmalari olib boradigan davolash-evakuatsiya, sanitariya gigienik, epidemiyaga qarshi tadbirlarida tibbiy vositalarga bo`lgan talabni aniqlash.

-FMTH ning tabel vositalarin to`plash, saqlash va tibbiy vositalar zapaslarini o`z vaqtida yangilash va jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko`rsatish bilan birga ularni to`ldirish

-Tibbiy mulklarni yalpi qirg`in qurolliridan himoya qilishni tashkil qilish

-FMTH muassasalarini va tuzilmalarini shikastlanganlarga yordam ko`rsatish davomida tibbiy vositalar bilan ta`minlash.

-FMTH muassasalari va tuzilmalari hodimlarini tibbiy vositalardan to`g`ri foydalanish va ularni asrash to`g`risida o`qitish.

-H`isob kitob ishlarini olib borish.

Tabel mulklar–bu malum vaqt ichida bir tuzilmani ishini ta`minlash yoki ma`lum miqdordagi jarohatlanganlarga ma`lum hajmda tibbiy xizmat ko`rsatish uchun mo`ljallangan mulklar.

H`ar bir tabel mulklar predmetlar ro`yhatidan va ularni miqdoridan iborat bo`ladi. Predmetlar o`z navbatida ularni nimaga mo`ljallanganligiga qarab turlarga va guruhlariga bo`linadi. Mn: og`riq qoldiruvchi, qon to`htatuvchi.

FMTH muassasalari va tuzilmalarining tabel mulklari shu tuzilmalarning qanday ish bajarishga mo`ljallanganligi, ularning tarkibi va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

FMTH muassasalari va tuzilmalari uchun kerak bo`ladigan hamma mulklar tibbiy, sanitar-ho`jalik va mahsus mulklarga bo`linadi.

-Tibbiy mulklarga dorilar, bog`lov vositalari, biopreparatlar, dezinfektsiyalovchi vositalar, instrumentlar, tibbiy apparaturalar, parvarishlash predmetlari, laboratoriya, apteka mulklari, tibbiy va sanitariya texnikalari kiradi.

-Sanitar-ho`jalik mulklariga choyshablar, halat, tapochka, mebel oshhona idishlari, oshhona jihozlari kiradi.

-Mahsus mulklarga radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari, yuqori nafas yo`llari va terini himoyalash vositalari, aloqa vositalari, injenerlik va yong`inga qarshi vositalar kiradi.

Tibbiy mulklar o`z navbatida bo`linadi: ishlatib yuboriladigan va inventar mulklarga ishlatib yuboriladigan mo`qlarga dorilar, biopreparatlar, qon preparatlari, bog`lov iplari, ignalar kiradi, bo`lar berilgandan keyin darov hujjat chiqarilib yuboriladi.

Inventar mulklarga apparatlar, kabinetlar jihozlanishi, priborlar, hirurgik instrumentlar kiradi. Bo`lar belgilangan ishlash muddatini h`isobga olgan holda texnik holatini baholagandan keyin spisat qilib yuboriladi.

Sifatiga qarab hamma inventar mulklar 4 kategoriyaga bo`linadi:

-1 kategoriyaga yangi ishlatilmagan mulklar

-1 kategoriyaga bo`lar ishlab turgan yoki ishlagan, to`zatilgan. Bu kategoriyaga yana muassasa yoki tuzilmada to`zatib bo`ladigan remont talab qiladigan inventarlar, shuningdek o`rtacha va kapitalnyy remondan chiqqan inventarlar ham kiradi.

-3 kategoriyaga bunga mahsus ustahonalarda remont talab qiladigan inventarlar kiradi.

-4 kategoriyaga yaroqsiz holdagi, to`zatish ekonomik tomondan zarar bo`ladigan h`olatdagi inventarlar kiradi.

FMTH mulklariga quyidagi talablar qo`yiladi:

-Komplekt bo`lishi kerak-bu h`amma mulklarni (dorilar, instrumentlar, bog`lov materiallarini) funksional bo`linishiga qarab guruhlarga ajratish. Komplekt malum bir miqdorda shikastlanganlarga tibbiy yordam berish uchun, jihozlar ma`lum bir funksional kabinet uchun mo`ljallaniladi.

-Mustahkam bo`lishi kerak, ular transportga yuqlaganda tushirganda, bir qancha vaqt olib yurganda ishga yaroqli bo`lishi kerak.

-Past yoki yuqori temperaturaga chidamli bo`lishi kerak .

-Germetik yopiq bo`lishi-mulk himoyalangan bo`lishi kerak. Radiaktiv moddalar, bakteriologik vositalar, zah`arlovchi birikmalar, chang tushmaydigan bo`lishi kerak. Tozalashga chidamli bo`lishi kerak.

FMTH muassasalari va tuzilmalari uchun mulklarning manbalari:

-FMTH skladida saqlanadigan mulklar

-Harbiy vaqtlarda ishlatish uchun davolash muassasalaridan keladigan mulklar

-Sanitar ho`jalik mulklari

-Kundalik ishlatiladigan mulklar

-FM shtabi orqali keladigan mulklar

**Ma`ruzaning ta`minlanishi:**

-Mavzu bo`yicha jadvallar

-Mavzu bo`yicha shemalar

**Tekshirish uchun savollar:**

-Tibbiy ta`minotni asosiy vazifalarini ayting

-Tibbiy ta`minotni boshqaruv organini tushintiring

-Tibbiy ta`minotni asosiy vazifalarini ayting

-Tibbiy ta`minotni tabel mulklarini tushintiring

-Tibbiy ta`minotni sanitar ho`jalik mulklarini tushintiring

-tibbiy ta`minotni mahsus mulklarini tushintiring

-Tibbiy mulklarning manba`larini ayting

**Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5**

### **Ma`ruza №7**

**Mavzu: Jarohatlanganlarga ihtisoslashgan malakali tibbiy yordam ko`rsatish**

**Mavzuning maqsadi:**

-Ihtisoslashgan malakali tibbiy yordamni ahamiyati va uni tashkil qilish bo`yicha tushunchaga ega bo`lish

-Kasalhona bazasiniing (KB) tashkiliy tuzilishi va vazifalari bilan tanishish

-Ko`p profilli va profili kasalhonalar, ularning turlari va vazifalari haqida tushunchaga ega bo`lish

- Davolash evakuatsion yo`nalishni tarkibi va vazifalarini bilish
- Bosh kasalhana va kasalhana bazasi va uning vazifalari to`g`risida tushunchaga ega bo`lish

- Kutilayotgan natijalar:** Talabalar ma`ruza eshitgandan keyin bilishlari kerak:
- Ihtisoslashgan tibbiy yordam qayerda va kim tomonidan tashkil qilinishini;
  - Kasalhana bazasi boshqaruvining asosiy vazifalarini
  - Bosh kasalhana va kasalhana bazasining asosiy vazifalarini;
  - Profilli va ko`p profilli kasalhonalarning tuzilishi va vazifalarini
  - Kasalhana bazasini ishini tashkil qilishni

**Ma`ruza rejasi:**

- Kasalhana bazasini boshqaruvini tashkil qilish va asosiy vazifalari
- Ihtisoslashgan malakali tibbiy yordam to`g`risida tushuncha
- Bosh kasalhananing tuzilishi va asosiy vazifalari
- Ko`p profilli va profilli kasalhonalarning turlari va vazifalari
- Davolash–evakuatsion yo`nalishning turlari va vazifalari

**O`qituvchining №7 ma`ruza bo`yicha izohi**

Mahsus ihtisoslashgan tibbiy yordam tibbiy yordamning yuqori turi hisoblanadi. Uni vrach mo`tahhasislar kasalhana bazasi davolovchi muassasalarida mahsus jihozlangan qismda olib boradilar. Kasalhana bazasi viloyat FMTH ida ochilib, kvalifikatsion mahsus yordam ko`rsatish va shikastlanganlarga yakuniy yordamni o`z zimmasiga oladi. Kasalhana bazasi shikastlanganlarni davolash evakuatsion taminot sistemasida evakuatsiya qilishning 2 chi ohirgi bosqichi hisoblanadi.

Kasalhana bazasi tarkibiga quyidagi davolash muassasalari kiradi: asosiy, ko`p profilli, profilli kasalhonalar kiradi. Ihtisoslashgan malakali tibbiy yordamni tashkil qilish va kuchaytirish uchun viloyat FMTH tomonidan berilgan ihtisoslashgan tibbiy yordam brigadasi va ihtisoslashgan tibbiy yordam otryadlaridan foydalaniladi. Kasalhana bazasining quvvati, koykalari soni, ihtisoslik bo`yicha soni viloyat (Resp, o`lka) tibbiy hizmati tomonidan belgilanadi. Kasalhana bazasi faoliyati kasalhana bazasi boshqaruvi (KBB) tomonidan boshqariladi.

KBB iga quyidagi topshiriqlar yuqlatiladi:

- Ochilish va ish jarayonida BB davo muassasalari faoliyatini boshqarishni tashkil qilish;
- Tibbiyot fanining yangi ilmiy va amaliy yutuqlaridan foydalanib, shikastlanganlarni diagnostika qilish va davolashni yangi usullarini tadbqiq qilish;
- BB ga keltirilgan jarohatlanganlarni davo muassasalari bo`yicha oqilona taqsimlanishini tashkil qilish;
- Davo muassasalariga kelgan jarohatlanganlarni qabo'l qilish va saralashni tashkil qilish, ihtisoslashgan malakali tibbiy yordam ko`rsatish va navbatdagi davolash ishlarini olib borish;

-Davo muassasalarini tibbiy va sanitar ho`jalik mulki bilan taminlanganligi va kasallarni ovqatlanishini nazorat qilish.

SHikastlanganlarni tibbiy taminoti davo-evakuatsiya yo`alishida olib boriladi. Davo evakuatsiya yo`nalishi-bu bitta va bir qancha yirik shaharlarni tibbiy xizmat bilan taminlashda yakka yo`l bilan bog`langan KB sining bir qismi hisoblanadi. KBB tarkibida dalo-evakuatsion yo`nalishda tibbiy xizmatni tashkil qilishga javobgar bo`lgan ishchilar bo`ladi. Davo-evakuatsion yo`nalish territoriyasida FMTHning bevosita rahbarligi Bosh Markaziy rayon kasalhonasi (BMRK) bosh vrachiga yuqratiladi. U esa Viloyat FMTH tomonidan belgilanadi. FMTH tarkibida boshqa rayon TSRB lari qoladi. Bosh kasalhona tibbiy muassasa rahbariyati bo`libgina qolmay, shikastlanganlarni saralash, FMTH davolash muassasalariga taqsimlash, shoshilinch ihtisoslashgan tibbiy yordam ko`rsatishni o`z zimmasiga oladi. SHunday qilib BK ko`p profili kasalhona turiga kiradi.

Viloyatning har bir administrativ rayonida KPK va PK ochiladi. Ular orasida travmatologiya, terapiya, psihonevrologiya va yuqumli kasalliklar kasalhonalari bo`lishi mumkin. Har bir viloyat rayoni territoriyasida FMTH soni aniq sharoit va imkoniyatlarga, avvalambor tibbiyot hodimlarining borligiga va kasalhona ochish uchun bino bor yo`qligiga qarab belgilanadi. Koykalar turi, soni shikastlanish o`chog`laridagi sanitar talofatga qarab belgilanadi. 20% o`rin bolalar uchun ajratiladi va ularga birinchi bo`lib tibbiy yordam ko`rsatiladi. Tinchlik vaqtlarida o`rinlarni profilli PK ning ochilish profiliga mos bo`ladi. Bakteriologik va kimyoviy shikastlanish o`chog`lari yuzaga kelganda ko`p miqdorda terapevtik va yuqumli kasallik o`rinlari zarur. Bunday hollarda o`rinlarni qaytdan profillashga ehtiyoj seziladi.

Davolash-evakuatsion yo`nalish territoriyasida tibbiy taqsimlash va yordamchi taqsimlash postlari ochiladi. Tibbiy taqsimlash posti avtomobil marshro`tlari bo`ylab asosan LEN qishloq rayonlariga olib boradigan, bo`zilish ehtimoli bo`lgan yo`llar orqasida ochiladi. Buning uchun TTP bor bo`lgan binodan, agar yo`q bo`lsa palatka yoki avtobusdan foydalaniladi. TTP tarkibida vrach, medsestra, registrator bo`ladi, bo`lar FMTH bosh kasalhonasidan ajratiladilar.

Tibbiy taksimlash posti vazifalariga kiradi:

-rayon kasalhonasiga ratsional va mo`tadil joylashtirish uchun shikastlanganlar oqimini taqsimlash;

-TTP GTSRB bosh vrachi bilan doimiy bog`lanib turishi uchun o`z DEY territoriyasida ish faoliyatini nazorat qiladi. YOrdamchi taqsimlash posti har rayonga kirishda avtomobil marshro`tlarida ochiladi. ETP tarkibiga medsestra, jamoat tartibini muhofaza qilish xizmati azosi kiradi. ETP belgilangan rayonga yo`llangan shikastlanganlarni olib boruvchi avtotransport harakatini boshqaradi.

Bosh kasalhonani ochilishini tashkil qilish

BB muassasasining ochilishi rejalashtirilganda qaerda ochilishi, hajmi, sog`liqni saqlash tashkilotining qaysi kuchi va vositasi hisobiga, bino, yordamchi qulayliklar qaerdan qandayligi h`isobga olinadi. Ochish bilan bog`liq masalalar FMTH va KBB tomonidan nazoratda turadi. KBB binoni taminlash, ochish muddati, kadrlar masalasi to`g`risida viloyat FMTH boshlig`iga vaqti-vaqti bilan doklad qilib turadi. KB davolash muassasasini ochishda

yordamchi binolar zarur. Bu maqsadda jamoat binolari, sanatoriyalar, dam olish uylari, pioner lagerlaridan foydalaniladi. Kasallarni parvarish qilish uchun sanitar drujinachilari, PTU, tehnikumda tibbiy sanitariya tayyorgarligidan o'tgan shahslar qabo'l qilinadi.

### **Bosh kasalhonani ochilishi va ishini tashkil qilish**

Bosh kasalhona vazifasi shikastlanganlarni evakuatsiya qilish yo'lida joylashgan kuchli TSRB lardan biriga yuqatiladi. Har bir davolash-evakuatsion taminotda bitta bosh kasalhona tashkil qilinadi. Bosh kasalhona shikastlanganlarni birinchi etapdan ikkinchi etapga evakuatsiya ishlarini, rayonlar bo'yicha kasallarni taqsimlash, ixtisoslashgan malakali tibbiy yordam ko'rsatishga rahbarlikni o'z zimmasiga oladi.

Qabo'l-saralash bo'limi tashkil qiladi-shikastlanganlarga transport yordami, saralash, avtomashinadan ularni tushirish, o'z administrativ rayonida qolganlarni evakuatsiya qilish, yuqumli kasallarni aniqlash va evakuatsiya qilish.

Bosh kasalhona saralash maydonida shikastlanganlarni profiliga qarab taqsimlanadi. Saralash maydonida saralash ishlarini saralash brigadasi olib boradi. Saralash brigadasi tarkibiga vrach-hirurg, medsestra, registrator, sanitariya drujinachilari kiradi. Saralash brigadasi shikastlanish turiga qarab jarohatlanganlarni quyidagi guruhlarga bo'ladi:

- kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamga muhtojlar
- og'ir shikastlanganlar, yakuniy profil davolash uchun (boldir, ko'krak travmalari)
- yuqumli kasallar va yuqumli kasalliklarga shubhali shahslar va nerv psihik bo'zilishlari bor kasallar (izolatorlarga yuboriladi)
- shu rayonni profili va ko'p profili kasalhonalariga evakuatsiya qilinadigan o'zi yura oladigan shikastlanganlar

-statsionar davolanishga muhtoj bo'lmagan engil jarohatlanganlar

Bosh kasalhonada qoladigan jarohatlanganlar qabul bo'limii orkali o'tkaziladi.

Qabo'l bo'limining asosiy vazifalariga kiradi:

-punkt ichi saralashini o'tkazish

-kelgan kasallarni joylashtirish va bo'limga o'tkazilguncha tibbiy hizmat ko'rsatish

-shikastlanganlarni operativ bog'lov yoki davolash bo'limiga rejali yo'llash.

Qabo'l qilish ko'zdan kechirish, saralash tez va engil o'tkazilishi kerak. Kasallik tarixini pasport qismini savodli kishi tez va aniq to'ldirishi kerak. Kasallik tarixiga bosh kasalhonaning tibbiy qartochkasi yopishtirib qo'yiladi.

Bosh kasalhonaning asosiy bo'limlariga kiradi:

-shoshilinch yordam bo'limii (operativ bog'lov bloki bilan)

-profilli palatalari bo'lgan davolash bo'limlari: shokga qarshi bo'lim, anaerob, tug'ro'q bo'limlari. SHokka qarshi bo'limga BK o'rinlarini 10N dan kam bo'lmagan miqdori ajratiladi.

-aralash ionlovchi nurlar bilan jarohatlanganlar uchun palata

-bolalar uchun palata

Ko'p profili kasalhonalarda terapiya bo'limi bo'lsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Profilli kasalhonalar jarohatlanganlar profiliga qarab ularga ixtisoslashgan va malakali tibbiy yordam ko'rsatish va ohirgi natijagacha davolash uchun mo'ljallaniladi.

Profilli kasalhonalarining asosiy vazifalari:

-kasallar va jarohatlanganlarni yalpi oqimini qabo'l qilishni taminlash va ularni qisqa muddatlarda saralash

Dozimetrii nazorat olib borish, jarohatlanganlarni sanitar ishlovidan o'tkazish, shuningdek kiyim va oyoq kiyimlarini dezinfektsiya, degazatsiya, dezaktivtsiya qilish.

-yuqumli kasallarni aniqlash, ularni vaqtinchalik izolatsiyalash, ruhiy bemorlarni aniqlash, profili kasalxonalariga yuborish.

-jarohatlanganlarga ihtisoslashgan, malakali tibbiy yordam ko'rsatish va ohirigacha davolash.

Ishchi hodimlar ,jarohatlanganlar va kasallarni zamonaviy jarohatlanish qurollaridan himoya qilish.

Har bir profili kasalxonalar tarkibida quyidagi bo'limlar bo'lishi kerak:

-boshqarma

-tibbiy bo'lim

-qabo'l bo'limi

-operatsiya bog'lov bloki

-davo bo'limlari

-yordamchi tibbiy bo'limlar: rentgen, kliniko-diagnostik laboratoriya, apteka, fizioterapevtik bo'lim, stomatolog, qon quyish va tayyorlash kabinetlari. Yuqumli kasalliklar kasalxonalarida bak.laboratoriya bo'ladi lekin qon quyish va tayyorlash bo'limii bo'lmaydi.

-hizmat bo'limlari

Profilni kasalxonalar stro'qturasida farq bo'ladi. Bu kasalxonalar profiliga qarab tashkiliy tuzilishida o'z hususiyatlariga ega. Profilli kasalxonalar asosan jarohatlanganlarga faqat bitta profil bo'yicha ohirigacha ihtisoslashgan, malakali tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallanilgan.

#### Travmatologik kasalhona

Travmatologik kasalxonalar asosan tarkibida hirurgik profili yoki mahsus tramotologik bo'limlari bo'lgan TSRB, KO'Q va shahar kasalxonalar bazalarida tashkil qilinadi. Travmatologik bo'lim asosan mehaniq jarohatlanganlarga va kuyganlarga ihtisoslashgan malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallanilgan. Kasalxonada asosan 2 ta bo'lim travmatologiya (50%) va quyish bo'limii (50%) o'ringa ochiladi. Shuningdek bu bo'limga aralash turdagi shikastlanishlar trav. kuyish-radiatsiyadan shikastlanganlar ham qabo'l qilinadi, asosiy shikastlanish tayanch harakat sistemasida bo'ladi.

Kasalhonaning asosiy vazifasi tibbiy rehabilitatsiya ishlarini olib borish. Kasalxonada quyidagi davo bo'limlari bo'ladi:

-travmatologiya bo'limi ochiq sinishlar uchun (toza), yopiq sinishlar uchun, yiring bilan asoratlangan suyak chiqishlari uchun. Bu bo'limda mahsus jarohatlanganlarni travmatologik davolash va vrachlik ekspertizasi qilinadi.

Har bir bo'limda o'zini alohida operatsiya bog'lov va mahsus instrumentlari bo'lishi kerak:

-anaerob bo'lim

-tiklovchi davo bo'limi (fizioterapiya, mehnat davosi terapiyasi).

Infektsion kasalhona



Qishlok va shah'ar davo muassasalari bazasida shah'ar chetida ochiladi. Kasalhona o'ta havfli infeksiyalardan (o'lat, vabo, chinchechak) tashqari yuqumli kasalliklarni qabo'l qilish va davolashga mo'ljallanilgan. Qabo'l bo'limi tarkibida dezinfektsiylovchi kamera va avtomobillarni dezinfektsiya qilish maydoni bo'lgan san propusknik jihzlantiriladi. Qabo'l bo'limining o'zi jihzlantiriladi. Kasalhona tarkibida diagnozi aniqlanmagan kasallar uchun boks va 2 ta davolash bo'limi ochiladi (ichak va havo tomchi infeksiyalari uchun). Kasalhona har qanday yuqumli kasallikni shu jumladan o'ta havfli yuqumli kasallarni qabo'l qilishga ham tayyor turishi kerak. Bunday holda kasalhona qaytadan profillanadi.

Kasalhona bazasini ishini tashkil qilish.

YAlpi qirg'in qurollari ishlatilgandan keyin shah'ar, rayon FMTH boshlig'i viloyat FMTH boshlig'iga shikastlanish o'chog'idagi sanitar talofat, stro'qturasi, miqdori to'g'risida malumot beradi. KBB shikastlanganlarni qabo'l qilish, davo muassalarini ritmik ishlashini tashkil qiladi. Jarohatlanganlarni KB ga evakuatsiya qilishda FM transport hizmati ajratgan har hil transport turlaridan foydalaniladi. Bu maqsadda FM sistemasida mahsus sanitar transport tuzilmalar, avtosanitar qolonnalar, otryadlar tuziladi. Sanitar poezdlar, porohodlar, samolyot, vertolet, mahsus jihozlanmagan transport vositalaridan ham foydalanish mumkin. SHikastlanganlarni avtomobil transportida evakuatsiya qilish temir yo'l, suv, aviatsiya transportidagidan farq qiladi.

**Ma'ruzaning taminlanishi:**

- mavzu bo'yicha jadvallar
- mavzu bo'yicha shemalar

**Tekshirish uchun savollar:**

- ihtisoslashgan malakali tibbiy yordam kim tomonidan qaerda ko'rsatiladi.
- kasalhona bazasining boshqaruvi va vazifalarini aytib bering
- profilli va ko'p profilli kasalhonalarining turlari va vazifalarini tushintirib bering
- davolash evakuatsion yo'nalishining vazifalari nimalardan iborat
- bosh kasalhonaning asosiy vazifalarini aytib bering

**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5**

**Amaliy mashg'ulotlar mavzularining mazmuni**

<b>No</b>	<b>Mavzularning nomlanishi</b>	<b>Soat</b>
1.	Fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalari	2
2.	Fuqaro muhofazasining tibbiyot instito'larida tashkiliy tuzilish tarkibi	2
3.	YAdroviy shikastlanish o'choqlarining tibbiy-taktik h'arakteristikasii	2
4.	Kimyoviy va bakteriologik zararlanish o'choqlarining tibbiy-taktik h'arakteristikasi	2

5.	Radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari	2
6.	Radiatsion h'olatini razvedka usulida bah'olash	2
7.	Kimyoviy h'olatni razvedka usulida bah'olash	2
8.	Fuqaro muhofazasining himoya inshootlari	2
9.	SHahsiy himoya vositalari	2
10.	Viloyatimiz hududida sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan faqulodda vaziyatlar va bu vaziyatlardan aholini muhofaza vaziyatlar va bu vaziyatlardan aholini muhofaza qilish chora-tadbirlari	2
11.	Fuqaro muhofaza tibbiy xizmatning tashkiliy tuzilishi. Zararlangan aholi uchun davolash evakuatsiya ta'minotini tashkil etish	2
12.	Birinchi tibbiy va birinchi vrachlik yordamini tashkil etish. Birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish otryadini shikastlanishi o'choqlaridagi ishini tashkil etish	2
13.	Jarohatlanganlarga ixtisoslashtirilgan maxsus tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish	2
14.	Bakteriologik zararlangan joylarda epidemiyaga qarshi kurashni tashkil qilish	2
15.	Tibbiyot muassasalarida va FM tuzilmalarini tibbiyot vositalari Bilan ta'minlash	2
16.	Fuqarolarni FM va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi o'qishlarini tashkil etish	4
	Jami	34

### Amaliy mashg'ulot №1

#### Mavzu: Fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalari

##### Mashg'ulot maqsadi:

- talabalarga yalpi qirg'in quollarining turlari to'g'risida tushuncha berish
- aholiga yalpi qirg'in quolari qo'llanilganda, tabiiy ofatlar, yirik avariylar sodir bo'lganda yordam berish

##### Mashg'ulot vazifasi:

- talabalarga yalpi qirg'in quollari ishlab chiqish va qo'llashga qarshi nafrat tuyg'ularini uyg'otish
- talabalarda shikastlanish o'chog'ida olib boriladigan qo'tqaruv ishlarini qo'nikmalarini shakllantirish.

##### Kutilayotgan natijalar: mashg'ulot o'tilgandan keyin talabalar bilishlari kerak:

- yalpi qirg'in quollarining turlarini
- qirg'in quollari qo'llanilishining salbiy oqibatlarini

-aholini yalpi qirg`in quollari qo`llanilganda, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar yuz berganda aholiga yordam berish tadbirlarini

-zamonaviy qurol-yarog` turlarini

-halq ho`jaligi ob`ektlarini yalpi qirg`in quollaridan himoya qilish choralarini

-shikastlanish o`chog`ida olib boriladigan kechiktirib bo`lmaydigan qo`tqaruv ishlarini

**Mavzuda ko`rib chiqiladigan savollar:**

1. Fuqarolar muhofazasining hozirgi zamon urushida to`tgan o`rni

2. YAlpi qirg`in quollari qo`llanilishining oqibatlari

3. Fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalari:

-aholini himoya qilish uchun olib boradigan tadbirlar

-halq ho`jaligi ob`ektlarini himoya qilish uchun olib boriladigan tadbirlar

- shikastlanish o`chog`ida olib boriladigan qo`tqaruv ishlari

**Amaliy mashg`ulot rejasi:**

- talabalarni mashg`ulotga tayyorgarligini tekshirish – 10 daqiqa

- talabalarni bilim darajasini tekshirish – 60 daqiqa

- o`qituvchining darsni muhokama qilish va yakunlashi – 20 daqiqa

**Mashg`ulot o`tish joyi – kafedra auditoriyasi**

### **O`qituvchining mavzuni asoslashi**

Fuqarolar muhofazasi umumdavlat mudofa sistemasining tarkibiy qismi bo`lib, tinchlik vaqtida va dushman havf tug`dirganda, yirik avariya, tabiiy ofatlar yuz berganda aholiga yordam berish uchun tashkil qilindi. Bunday tadbirlarni amalga oshirish uchun fuqarolar muhofazasiga quyidagi vazifalar yuqulatildi:

- mamlakatni barcha aholisini yalpi qirg`in quollaridan himoyalash usullari va vositalari bo`yicha majburiy o`qitish

- yalpi qirg`in quollaridan aholini himoya qilish

- harbiy sharoitda haq ho`jaligini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarini ko`rish

- shikastlanish o`chog`ida kechiktirib bo`lmaydigan qo`tqaruv ishlarini olib borish va shikastlanganlarga tibbiy yordam ko`rsatish

-oziq-ovqat mahsulotlari, suv manbalari, o`simliklar va hayvonlarni yalpi qirg`in quollaridan himoya qilinishini ta`minlaydigan tadbirlarni olib borish.

Fuqarolar muhofazasining asosiy vazifasi bu – aholini yalpi qirg`in quollaridan himoya qilish fuqarolar muhofazasining bu vazifasi aholini ishchi, hizmatchilarni, yashirinish joylariga yashirish va shahsiy himoya vositalaridan foydalanishi bilan amalga oshiriladi.

Ko`chirish – bu biror qorhona yoki muassasa ishchi-hizmatchilarini yirik shah`arlardan shah`ar ortiga chiqarish. Bundan asosiy maqsad alohida turgan va dushman uchun ishonchli bo`lgan halq ho`jaligi ob`ektlarini ko`chirish hisoblanadi.

Evakuatsiya – yalpi qirg`in quollaridan kuchli talofat ko`rgan territoriyada qolgan aholini shahar ortiga ko`chirish. Aholini va ishchi hizmatchilarni shahar ortiga o`z vaqtida

ko'chirish dushman tomonidan yalpi qirg'in qurollari qo'llanilganda sanitar yo'qotishlarni sonini kamaytirishga yordam beradi.

Ko'chirish va evakuatsiya qilishga fuqarolar muhofazasi boshliqlari va shtablari rahbarlik qiladilar. Buni amalga oshirish uchun viloyat, o'lka, rayon evakuatsiya komissiyalari tuziladi. Bunday komissiyalar halq ho'jaligi ob'ektlarida ham tashkil qilinadi. Rayonlarda bo'lsa shah'ardan ko'chirib kelinayotgan ishchilar va aholini qabo'l qilish va joylashtirish komissiyalari tuziladi. Ular evakuatsiya qilinganlarni qabo'l qilish, joylashtirish, ishga jalb qilish, tibbiy ta'minlash ishlari bilan shug'ullanadilar.

Evakuatsiya komissiyalariga ob'ekt fuqarolar muhofazasi boshlig'ining o'rinbosarlari rahbarlik qiladilar. Ahamiyatli jihatidan muhim tadbirlardan yana biri aholini o'z vaqtida yashirinish joylariga joylashtirish. SHuni ham hisobga olish kerakki, agar odamlar usti yopilmagan joylarga yashirinsalar ham ochiq joyda qolgandagidan 1,5-2 marta kam zarba to'lqini ta'siriga duchor bo'lar ekanlar. Agar odamlar yopiq joyda bo'lsalar zarba to'lqinidan tashqari yorug'lik nurlanish suyuq tomchi holdagi kimyoviy moddalardan himoyalanaadilar va ochiq joyda qolgandagiga nisbatan radiaktiv nurlanish darajasini 40 martagacha kamaytiradi.

Mahsus qurilgan va jihozlangan yashirinish joylari aholini radiaktiv, zah'arlovchi va bakterial vositalari aerollaridan to'liq himoya qiladi va yorug'lik nurlanishi zarba to'lqini ta'sirini 3-5 martaga kamaytirib beradi.

Ah'olini yalpi qirg'in qurollari himoya qilish tadbirlari natijalari bo'ladi. Qachonki hamma fuqarolar ularni qo'llash usullari va vositalari bilan tanish bo'lsalar. Ko'chirilgan joyda oziq-ovqatlarni suvni zapaslari, tibbiy vositalar, suv zapasi saqlash uchun idish bo'lishi muhim hisoblanadi.

Dushman yadro hujum qilganda fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalaridan yana biri bu sanoat, energetika, avtomobil va aloqa ob'ektlarining ishini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarni olib borish hisoblanadi.

Agar tinchlik vaqtida halq ho'jaligi ob'ektlarini ishi ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan energiya, hom ashyo, polifabriqantlarni borligiga bog'liq bo'lsa, harbiy sharoitda bo'larga qo'shimcha halq ho'jaligining hamma ob'ektlari zamonaviy qurollarning chilparchin qiladigan kuchlariga qarshi kuchga ega bo'lishi kerak. Halq ho'jaligi ob'ektlarining mustahkamlik darajasi o'z vaqtida tashkiliy, texnik, texnologik tadbirlarni olib borishga yordam beradi.

Fuqarolar muhofazasining eng muhim vazifalaridan yana biri-bu shikastlanish o'chog'ida kechiktirib bo'lmaydigan qo'tqaruv ishlarini tashkil qilish va olib borishdir.

Ularga quyidagilar kiradi:

- shikastlanish o'chog'ida va zararlangan bo'lo'tni harakati bo'ylab razvedka olib borish

- yong'in, yiqilgan ishootlar ostidan shikastlanganlarni izlash, topish, tortib olish

- shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va ularni shikastlanish o'chog'idan davolash muassasalariga evakuatsiya qilish

- odamlarni va ularni kiyimlarini sanitariya ishlovdan o'tkazish

- territoriya, qurilmalar, texnikalar va transportlarni zararsizlan-tirish

- hayot uchun zarur bo'lgan ob'ektlarda kechiktirib bo'lmaydigan avariya kamaytirish ishlarini olib borish

**Mashg'ulotning ta'minlanishi:**

- mavzu bo'yicha jadvallar
- mavzu bo'yicha shemalar

**Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

- fuqarolar muhofazasining hozirgi zamon urushida to'tgan o'rnini aytib bering
- fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalarini tushuntiring
- ah'olini himoya qilish tadbirlari qanday amalga oshiriladi
- halq ho'jaligi ob'ektlarini ishini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar deganda nimani tushunasiz
- shikastlanish o'chog'ida olib boriladigan kechiktirib bo'lmaydigan qo'tqaruv ishlariga qanday tadbirlar kiradi

**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:1, 2, 3, 4, 5**

## **Amaliy mashg'ulot №2**

**Mavzu: Fuqarolar muhofazasining tibbiyot instito'tlarida tashkiliy tuzilishi**

**Mavzuning maqsadi:**

- talabalarga fuqarolar muhofazasi tashkilotining halq ho'jaligi ob'ektlarida tashkiliy tuzilishi bilan tanishtirish
- talabalarni qo'tqaruv guruhlarini ishlari bilan tanishtirish

**Mashg'ulot vazifasi:**

- talabalarda fuqarolar muhofazasi tashkilotini tashkil qilish ko'nikma va mahoratlarini shakllantirish
- talabalarda tashkiliy kobilyatlarni yuzaga kelishiga erishish

**Kutilayotgan natijalar:** talabalar amaliy mashg'ulotdan so'ng bilishlari kerak:

- fuqarolar muhofazasi tashkilotlari qaerlarda tuzilishini
- fuqarolar muhofazasi tashkilotining rahbar tarkibini
- fuqarolar muhofazasi tashkilotining tarkibiy tuzilishini
- fuqarolar muhofazasi tashkilotining ob'ektga oid tuzilmalari va ularning asosiy vazifalarini
- tibbiyot instito'tlaridagi fuqarolar muhofazasi tashkilotining tuzilishi va asosiy vazifalarini

**Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

- fuqarolar muhofazasi tashkilotining qae'larda tuzilishi
- fuqarolar muhofazasi tashkilotini kimlardan tuzilishi
- tibbiyot instito'larida fuqarolar muhofazasi tashkilotini tashkiliy tuzilishi

#### Amaliy mashg'ulot rejasi:

- talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish – 10 daqiqa
- talabalarni bilim darajasini tekshirish – 60 daqiqa
- o'qituvchini mavzusini muhokama qilish va yakunlash – 20 daqiqa

#### Mashg'ulotni o'tkazish joyi: kafedra auditoriyasi

#### O'qituvchini mavzuni asoslashi

Fuqarolar muhofazasi halq ho'jaligining hamma ob'ektlarida tashkil qilinadi, shu jumladan sog'liqni saqlash muassasalarida ham shuningdek, dushman tomonidan qo'llaniladigan yalpi qirg'in qurollari va zamonaviy hujum vositalaridan o'z vaqtida himoyalash maqsadida, harbiy sharoitda tibbiyot instito'larining ishini yaxshilash uchun sharoit yaratish va o'z vaqtida qo'tqaruv ishlarini olib borish maqsadida tibbiyot instito'larida ham fuqarolar muhofazasi tashkiloti tashkil qilinadi.

Instito't fuqarolar muhofazasi tashkilotining boshlig'i rektor bo'ladi. Fuqarolar muhofazasi tadbirlarini o'tkazish uchun u asosiy javobgar shahs h'isoblanadi. Tibbiyot instito'tining fuqarolar muhofazasi boshlig'i sog'liqni saqlash ministrligi fuqarolar muhofazasi boshlig'iga va shu instito't joylashgan terrioriya fuqarolar muhofazasi boshlig'iga bo'ysunadi. Instito't fuqarolar muhofazasi boshlig'ining bo'yrug'i bilan material-tehnik ta'minot, evakuatsiya bo'yicha o'rinbosari tayinlanadi, bo'lardan tashqari tezqor guruh va evakuatsion komissiya tuziladi. Evakuatsion komissiyasining raisi bitta prorektor bo'ladi.

Fuqarolar muhofazasi tashkiliy tuzilishining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: rahbariyat, shtablar, hizmatlar, evakuatsion komissiyasi va fuqarolar muhofazasi kuchlar.

Rahbariyat bu har hil darajadagi fuqarolar muhofazasi boshliqlari bo'lib, ular fuqarolar muhofazasining aholiga va halq ho'jaligini himoya qilish uchun olib boriladigan tadbirlarning bajarilishi uchun javobgar shahs h'isoblanadi. Dushman hujum qilgan sharoitda ular aholiga habar berish, himoya qilish va hujum qoldirgan izni bartaraf qilish chora tadbirlarini yuqoridagi nachalniklarning bo'yrug'ini ko'tmasdan olib borishga javobgar bo'ladilar. FM tuzilmalariga ular to'g'ridan to'g'ri yoki shtab orqali rahbarlik qiladilar. Har bir FM tashkilotida shtab tashkil qilinadi va u boshqaruv organi bo'lib hamma amaliy ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi. Shtab ishlari FM nachalnikining bo'yrug'i bilan amalga oshiriladi. FM sining ish faoliyati davrida mahsus ishlarni bajarish uchun mahsus hizmat turlari tuziladi. Baza bor yo'qligi va mahalliy sharoitga bog'liq holda FM nachalnikining bo'yrug'i bilan FM ning quyidagi hizmat turlari tuzilishi mumkin:

- yashirin joylari
- aloqa bo'limi
- yong'inga qarshi bo'lim
- tibbiy bo'lim

-injenerlik bo`limi

-radiatsiyaga va kimyoviy qurolga qarshi himoya bo`limi

-transport, kommunal texnik, jamoat tartibidagi qo`riqchi, ovqatlanish, o`simlik va hayvonlarni himoyalash xizmat turlari tuzilishi mumkin. Har bir xizmat turi o`zini mahsus xizmatini bajarish uchun o`z kuchi va vositalariga ega bo`ladi. Bu xizmatlarni qorhona rahbariga bo`ysunadigan shtab tashkil qiladi. Bu xizmatlarning nachalniklari ularni tashkil qilgan qorhonaning rahbari hisoblandilar. Xizmat nachalniklari FM va shtab nachalniklari bilan tadbirlarni rejalashtirishda qatnashadilar.

FM kuchlariga tuzilmalar, muassasalar va FM ning harbiy qismlari kiradi. Ular asosan yalpi qirg`in qurollari qo`llanilganda, tabiiy ofatlar, bahtsiz hodisalar yuz berganda aholiga yordam beriish uchun tashkil qilinadi

FM kuchlarining asosini FM ning harbiy bo`lmagan tuzilmalari tashkil qiladi. Ular halq ho`jaligi ob`ektlarida ishchi va hizmatchilardan tashkil qilinadi. Bunday tuzilmalarda ishlashga erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar 55 yoshgacha qabo`l qilinadi. Tuzilmalarga invalidlar 1 va 2 guruh, homilador ayollar, 8 yoshgacha bolasi bor bo`lgan ayollar ishga olinmaydi.

Tuzilmalar ikki hilda bo`ladi: umumiy turdagi va xizmat tuzilmalari. umumiy turdagi tuzilmalar FM kuchlarining asosiy yadrosi bo`lib, o`choqda kechiktirib bo`lmaydigan qo`tqaruv otryadlari, ma`lumot to`plovchi otryadlar kiradi.

Xizmatdagi tuzilmalar shikastlanish o`choqlarida mahsus vazifalarni bajarish uchun mo`ljallanadi. Ularga aloqa bo`limi, yong`inga qarshi komanda, zararsizlantirish komandalari, avtokalonna, jamoa tartibidagi qo`riqlash komandalari kiradi. Qishloq ho`jalik ob`ektlarida o`simlik va hayvonlarni himoya qilish guruhlari ham tuziladi. Bo`ysunishi bo`yicha tuzilmalar ob`ektga oid va teritoriyaga oid tuzilmalarga bo`linadi.

Ob`ektga oid tuzilmalar ana shu ob`ektning FM nachalnikiga bo`ysunadi va ana shu ob`ektda qo`tqaruv ishlarini olib boradi. Teritoriyaga oid tuzilmalar ana teritoriya FM nachalnikiga bo`ysunadi va ana shu teritoriyada qo`tqaruv ishlarini olib boradi.

Tuzilmalarning bir qismi o`rmon yong`inlariga qarshi qo`rashish uchun tayyor qilib qo`yiladi. Yana bir qismi esa bahtsiz hodisa, tabiiy ofat, katta avariyaalarning izlarini bartaraf qilishda qo`tqaruv ishlarini olib borish uchun tayyor qilib qo`yiladi. FMning harbiy qismlari ko`proq tashkillashgan kuch bo`lib eng og`ir uchastkalarda qo`tqaruv ishlarini olib borish uchun mo`ljallaniladi.

Evakuatsiya komissiyasiga ob`ekt rahbarlarning o`rinbosarlari boshchilik qiladilar. Evakuatsiya komissiyasi zimmassiga dushman hujum qilish havfi bo`lganda aholini katta shah`arlardan qishloq joylariga ko`chirishni rejalashtirish va amalga oshirish ishlari yuqratiladi. Evakuatsiya qilinganlarni qabo`l qilish kerakli narsalar bilan ta`minlash uchun qishloq va sovhozlarda qabo`l qiluvchi komissiyalar tashkil qilinadi.

**Mashg`ulotning ta`minlanishi:**

- mavzu bo`yicha shemalar

- mavzu bo`yicha jadvallar

**Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

- fuqarolar muhofazasi qae'larda, kimlar rahbarligida tashkil qilinadi
- fuqarolar muhofazasi tashkilotiga kimlar qabo'l qilinadi
- fuqarolar muhofazasi tashkiloti tibbiyot instito'larida qanday tashkil qilinadi
- fuqarolar muhofazasi tarkibida qanday hizmat turlari tashkil qilinadi va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat.

**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4**

### **Amaliy mashg'ulot №3**

**Mavzu: YAdro quolidan shikastlanish o'chog'ining tibbiy taktik h'arakteristikasi**

**Mashg'ulot maqsadi:**

- talabalarga yadro quoli va uning turlarini o'rgatish
- yadro quolining zararlovchi omillari va ulardan himoyalalanish choralarini o'rgatish
- yadro quolidan zararlanish o'chog'larining turlari va undan talofatlar darajalari bilan tanitirish

**Mashg'ulotning vazifalari:**

- yadro quolini ta'sir qiluvchi omillaridan himoyalalanish amallarini shakllantirish
- yadro quolidan shikastlanish o'chog'ida jarohatlanganlarga ko'rsati-ladigan tibbiy yordam amallarini mo'qammallashtirish

**Kutilayotgan natijalar: mashg'ulot o'tilgandan keyin talabalar bilishlari kerak:**

- yadro quoli va uning yalpi qirg'in quollari orasida to'tgan o'rnini
- zarba to'lqini va uning odamlarga ta'sirini
- yorug'lik nurlanishi va uning odamlarga ta'sirini
- ionlovchi nurlanish va yadro quolining boshqa omillarining ta'sirini
- yadro quolidan zararlanish o'choqlarining turlarini
- radiaktiv zararlanish zonalari h'arakteristikasini

**Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

- yadro quoli to'g'risida tushuncha
- yadro quolining quvvati bo'yicha turlari
- zarba to'lqini va uning ta'siri
- yorug'lik nurlanish va uning ta'siri
- ionlovchi nurlanish va boshqa omillarning ta'siri
- yadro quolidan shikastlanish o'choqlari va uning turlari
- radiaktiv zararlanish zonalari



### Amaliy mashg'ulot rejasi:

- talabalar mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish – 10 daqiqa
- talabalar bilim darajasini tekshirish – 60 daqiqa
- o'qituvchini mavzuni muhokama qilish va yakunlashi – 20 daqiqa

### O'qituvchining mavzuni asoslashi

Yadro quroli portlashidan zarar ko'rgan terri toriya yadro portlashidan shikastlanish o'chog'i deb ataladi. Uni zarba to'liqining oldingi qismi (fronti) dagi ortiqcha bosim miqdoriga qarab quyidagi zonalarga bo'lish qabo'l qilingan: vayronalik zonasi, kuchli emirilishi zonasi, o'rtacha emirilish zonasi va kamroq emirilish zonasi.

Yadro portlashidan shikastlangan o'choqda harbiy qism yadro qurolning shikastlovchi omillaridan: zarba to'liqini, yorug'lik nurlanishi va o'tib kiruvchi radiatsiya birdaniga yuqori darajada va ko'p energiya tarzida ta'sir qiladi va buning natijasida ommaviy sanitar yo'qotishlar paydo bo'ladi. Ularning soni yuzlab va minglab kishini tashkil qiladi. Er ustida (er ostida, suv ostida va suv ostida) yadro zaryadi portlatilganda yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari, portlash markazida hosil bo'lgan radioaktiv moddalar va joylardagi radiaktiv moddalar bo'lo'ti qoldirgan «iz» dan ajralib chiqqan gamma – nurlar ta'sir qiladi. Paydo bo'lgan sanitar yo'qotishlarning miqdori va ularning hususiyati juda ham ko'p omillarga bog'liq bo'ladi, ya'ni yadro zaryadi qaerda portlatilganligiga va uning quvvatiga: harbiy qismda o'tkazilayotgan jangavor harakatlarning hususiyatiga; joylarning relefiga; ob-havo sharoitlariga; jangovar texnikalar va himoyalovchi injenerlik inshootlarning himoyalovchi hususiyatlaridan o'z vaqtida foydalanishga; harbiy qismlarning jangovarlik hususiyatlariga hamda ko'pdan-ko'p boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi vaqtdagi qarashlarga qaraganda, yadro zaryadi portlashi natijasida quyidagi tarkibda sanitar yo'qotishlar ruy berishi mumkin.

Kuchli emirilish zonasida (zarba to'liqini frontidagi eng katta bosim  $1 \text{ kg/sm}^2$  dan ortiq bo'lganda) harbiy hizmatchilarning barchasi quyish va shikastlanishlar natijasida halok bo'ladi. Boshqa zonalarda hosil bo'ladigan sanitar yo'qotishlari yadro portlashning quvvatini, zararlanish maydonida sodir bo'ladigan omillar va shu maydondagi h'arbiy qismlar zichligini koeffitsientlarga quyib tahminan h'isoblash chiqish mumkin.

Sanitar yo'qotishlar – yadro zaryadlarining portlashiga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, o'рта va katta kalibrdagi (20-100-500 qilotonna) yadro zaryadi portlatilganda jarohatlanishlar va kuyishlar natijasida ko'p jangchilar shikastlanadilar. Ular orasida qisman gamma –neytron nurlanishlar bilan zararlanganlar h'am ko'zitatiladi. Kichik va O'ta kichik yadro zaryadlari va neytron bombasi portlatilganda jangchilar orasida kombinatsiyalangan shikastlanishlar ko'p uchraydi. Bunda ko'proq kuyish va jarohatlanish yoki faqat radiatsion shikastlanishlar ko'zitatiladi. Kombinatsiyalangan radiatsion zararlanishlar umumiy jarohatlanganlar orasida 10-12 % dan 20-230 % gacha tashkil qilishi mumkin. Jarohatlanish va zararsizlantirish darajasiga qarab quyidagicha bo'lishi mumkin: 30-40 % gacha og'ir darajadagi zararsizlanish, 30 % o'rtacha darajasidagi, 20 % gacha engil darajadagi zararlanishlarni tashkil qiladi.

SHunday qilib, yadro zaryadi portlashidan shikastlanish, shu o`choqda paydo bo`lgan sanitar yo`qotishlar quyidagilar namoyon bo`ladi:

- yadro zaryadi portlashi ro`y bergan joylarda juda ko`p va birdaniga sanitar yo`qotishlar sodir bo`ladi;

- kombinatsiyalangan zararlanishlar ko`p uchraydi, ular o`zining og`ir kechishi bilan ajralib turadi, shuning uchun tibbiy yordam ko`rsatish o`zoq vaqt davom etadi;

- zararlangan kishilarning 50-60 % kechiktirib bo`lmaydigan yoki oshgich tibbiyot yordami ko`rsatishga muhtoj bo`ladi.

- zararlangan kishilarning teri qavatlari, ust-boshlari radioaktiv moddalar bilan zararlangan bo`ladi, shuning uchun bunday kishilarni mahsus sanitariya ishlardan o`tkazish talab qilinadi.

Bundan tashqari, barcha zararlanganlar juda ko`p bo`zilishlar bo`lgan joylarda va radioaktiv moddalar bilan zararlangan territoriyada qolib ketadilar. Bo`larning hammasi tibbiyot hodimlaridan tezqorlik bilan yordam ko`rsatishini talab qiladi, natijada ular h`am zararlanib qoladilar. Bu zararlangan kishilarni evakuatsiya qilishda ancha qiyinchilik tug`diradi. Zararlanish o`chog`ida asosan birinchi tibbiy yordam ko`rsatiladi. Bunda zararlanganlar o`ziga yoki o`zaro bir-biriga tibbiy yordam ko`rsatadi. SHuningdek, sanitarlar yoki sanitar instro`qtorlar tarafidan ham yordam ko`rsatiladi.

**Mashg`ulotning ta`minlanishi:**

- mavzu bo`yicha shemlar
- mavzu bo`yicha jadvallar

**Mavzu bo`yicha nazorat savollari:**

- yadro quroliga ta`rif bering va uning turlarini ayting
- uning quvvati bo`yicha turlarini ayting
- zarba to`lqini ta`sirini tushuntiring
- yorug`lik nurlanishi organizmga qanday ta`sir qiladi
- yorib kiruvchi radiatsiya va boshqa zararlovchi omillarni ta`sirini tushuntirish
- yadro qurolidan shikastlanish o`chog`i va uning turlarini ayting
- yadroviy zararlaning zonalarini h`arakteristikasini ayting

**Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar: 3, 4, 5, 7**

#### **Amaliy mashg`ulot №4**

**Mavzu: Kimyoviy moddalar va biologik vositalardan zararlanish o`chog`ining tibbiy taktik h`arakteristikasi**

**Mashg`ulot maqsadi:**

- talabalarni yalpi qirg`in quroli sifatida qo`llaniladigan kimyoviy birikmalar turlarini bilan tanishtirish

- har hil turdagi zah'arlovchi birikmalar bilan zah'arlanishning qisqacha h'arakteristikasi bilan tanishtirish
- kimyoviy zararlanish o'chog'i, h'arakteristikasi, ikqilamchi zararlanish o'choqlari to'g'risida ma'lumotlar berish
- biologik zararlash vositalari ularning o'ziga hos hususiyatlari biologik zararlanish o'chog'i, h'arakteristikasi bilan tanishtirish

#### **Mashg'ulot vazifasi:**

- kimyoviy qurollar, ularni zararli ta'siri, zararlanishni oldini olish choralarini to'g'risida ma'lumotlar berish
- biologik qurollar, ularning o'ziga hos tomonlari, zararlanish yo'llari, himoyalani choralari to'g'risida o'rgatish
- kombinirlardan zararlanish o'chog'i va undan himoyalani shga o'rgatish

#### **Kutilayotgan natijalar: talabalar amaliy mashg'ulot o'tgandan keyin bilishlari kerak:**

- zararlovchi birikmalarning turlarini
- zah'arlovchi moddalardan odamlarni zararlanishlarning qisqacha h'arakteristikasini
- zararlanish o'choqlarining qisqacha h'arakteristikasini
- biologik zararlash vositalari va uning o'ziga hos hususiyatlarini
- biologik zararlanish o'chog'ining h'arakteristikasini
- kombinirlangan zararlanish o'choqlarining h'arakteristikasini

#### **Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

- zah'arlovchi birikmalarning tasnifi
- kuchli ta'sir qiluvchi zah'arlovchi birikmalar
- kimyoviy zah'arlanish o'chog'i, uning h'arakteristikasi
- biologik zararlanish o'chog'i, uning h'arakteristikasi
- biologik qurollarning o'ziga hos hususiyatlari
- kombinirlangan zararlanish o'chog'ining h'arakteristikasi

#### **Amaliy mashg'ulot rejasi:**

- talabalar mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish – 10 daqiqa
- talabalar bilim darajasini tekshirish – 70 daqiqa
- darsni muhokamasi va o'qituvchining darsni yakunlashi – 10 daqiqa

#### **Mashg'ulot o'tkazish joyi: kafedra auditoriyasi**

#### **O'qituvchining mavzuni asoslashi**

Kimyoviy zararlanish o'chog'i deganda kimyoviy qurol ta'siriga uchragan barcha odamlar, hayvonlar, ob'ektlar, shuningdek, tehnika, atmosfera o'simliklari bo'lgan terri toriya tushuniladi. Kimyoviy zararlanish o'chog'ining o'ziga hos hususiyati qaysi

zah'arlovchi modda qo'llanilganiga, shuningdek, uni qo'llash usuliga, yil fasliga, ob-havo sharoitga ba'zi bir boshqa omillarga bog'liq.

Kimyoviy zararlantirish o'chog'ining katta-kichikligi eng avvalo dushman tomondan zah'arlovchi moddalarning qanday agregat h'olatda qo'llanilishi, shuningdek, qilingan hujumning kuchi bilan belgilanadi. Zah'arlovchi moddalarni mo'ljallagan joyga etkazish uchun katta kalibrdagi raketalar va aviabombalar qo'llanilgan taqdirda, kimyoviy zararlantirish o'choqlari juda katta maydonlarda paydo bo'ladi.

Dushman tomondan zah'arlovchi moddalar suyuq-tomchi h'olatda bo'ladi. Agar zah'arlovchi modda havoning er usti qatlamida bug' yoki tuman holda tursa, u holda zararlantirgan bo'lot' havo oqimi bilan birga shamol esayotgan tomonga qarab so'zadi. Soatiga 3-6 km tezlikda esayotgan kuchsiz shamolda havo oqimi tik ko'tarilmasa, zah'arlangan bo'lot' zararlantirish hususiyatini saqlagan holda 20-50 km masofaga so'zib borishi mumkin. Demak, birlamchi kimyoviy zararlantirish o'chog'iga nisbatan shamol esayotgan tomondagi joy vaqt o'tishi bilan oqib kelayotgan zah'arlovchi moddalar yo'lga duch kelishi mumkin. Bunda kimyoviy zararlantirish o'chog'i maydoni kattalashadi.

Kimyoviy zararlantirish o'chog'ining barqarorligi qo'llanilgan zah'arlovchi moddalarning turi va uning qo'llash usuli bilan belgilanadi.

Beqaror kimyoviy zararlantirish o'chog'i dushman tomondan chidamli zah'arlovchi moddalarni suyuq-tomchi holda yoki yopishqoq suyuqlik holda qo'llanilgan taqdirda hosil bo'ladi. Yil fasliga, ob-havo sharoitiga va joyning reliefiga qarab zah'arlovchi moddalar zah'arlanish hususiyatini bir necha haftagacha va hatto oylarga saqlab turishi mumkin.

Zah'arlovchi moddalar havo ochiq, issiq kunda, o't-o'lanlar bo'lmagan joyda tezroq bug'lanadi. Hatto V-gazar guruhidagi juda chidamli zah'arlovchi moddalar ham bunday sharoitlarda zararlantirish hususiyatini 1-3 so'tka mobaynida ushlab turadi. Bunda shuni nazarda to'tish kerakki, zo'r berib bug'lanish natijasida zararlantirgan territoriya ustidagi havoda zah'arlovchi moddalar bug'ining miqdori juda ko'payib ketishi mumkin. Havo sovuq, bo'lot'li bo'lganda, o't-o'lanlar qalin joyda yoki o'rmonzorlarda suyuq-tomchi holda qo'llanilgan zah'arlovchi moddalar ancha o'zoq vaqtga qadar saqlanib turishi mumkin. Zararlantirish havfi bunday h'olda bir necha kungacha, ba'zi esa bir nechta haftagacha mavjud bo'ladi. Qish paytida zah'arlovchi moddalarning zararlantirish havfi u qo'llanilgan joyda ayniksa o'zoq vaqt turadi.

Kimyoviy zararlantirish o'chog'ida zararlantirgan harbiy hizmatchilarga tibbiy yordam o'tkazishda zah'arlovchi moddaning ularga ta'sir qilish vaqtini bilishdan tashqari, ularda zah'arlanish simptomlarining tez rivojlanishini ham h'isobga olish kerak. Zah'arlovchi moddalar ta'sir qiladigan va sekin ta'sir qiladigan turlarga bo'linadi.

Tez ta'sir qiladigan zah'arlovchi moddalar hosil qilgan zararlantirish o'chog'ida zararlantirish simptomlari bir necha soat ichida, sekin ta'sir qiladigan zah'arlovchi moddalar hosil qilgan zararlantirish o'chog'ida zararlantirish simptomlari esa bir soatdan oshiqroq vaqt ichida rivojlanadi. Bu bo'linish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki zararlantirish o'chog'ida zararlantirish simptomlarining rivojlanish vaqtini bilganimiz tufayli, ihtiyorimizdagi vaqtdan foydalanib zararlantirganlarga tegishli tibbiy yordam miqdorini (hajmini) ko'rsatishni aniqlagan bo'lamiz.

Hozirgi vaqtda kimyoviy zararlantish o`chog`i to`rt turga bo`lamiz.

Tez ta'sir qiladigan zah'arlovchi moddalar hosil qilgan kimyoviy zararlantish o`chog`i birinchi daqiqalarda ko`p kishilarni zararlantishi, klinik simptomlarning jadallik bilan rivojlanishi va ular ko`p sanitar yo`qotishlar (nobud bo`lishlar) vujudga kelishi bilan ta'riflanadi. Bu sharoitda shahsiy himoya vositalarini o`z vaqtida kiyish, zararlantish o`chog`ida zid-zah'arlar va himiyaga qarshi individual paketlar yordamida o`ziga va bir-biriga tibbiy yordam ko`rsatish tadbirlari katta ah'amiyatga ega.

Zararlantish alomatlarining tezlik bilan rivojlanishi, ko`pchilik kishilarning og`ir daraja (60-70 %) zararlantishi, shifoqor ko`rsatadigan birinchi tibbiy yordam va malakali tibbiy yordam ko`rsatish vaqtlari keskin cheklanganligi zararlantish o`chog`ida ularni tezlik bilan evakuatsiya qilish talab qiladi.

Sekin ta'sir qiladigan zah'arlovchi moddalar hosil qilgan kimyoviy zararlantish o`chog`i asta-sekinlik bilan sanitar yo`qotishlarni (4-12 soat ichida) jang maydonida rivojlanishi bilan ifodalanadi. Bu sharoitda tibbiy xizmat kuchlari va vositalarini tashkil qilishda, tibbiy saralash o`tkazish va zararlantgan kishilarga birinchi shifoqorgacha bo`lgan tibbiy yordam ko`rsatish hamda evakuatsiya tadbirlarini shoshilmasdan o`tkazishga imkoniyat yaratilgan bo`ladi.

CHidamli zah'arlovchi moddalar zarar etkazish hossasini bir necha soatgacha saqlab qoladi, shu sababli zararlantish o`chog`da kishilarning usto-boshlari, yara bog`lamlari zah'arlovchi moddalarini o`ziga singdirib olish (desorbtsiya) hususiyatiga ega. Bunday zararlantganlar yoki zararlantish o`chog`idan kelgan h'arbiy transport, tibbiy vositalar bilan o`zaro aloqada bo`lish (kontakt) tibbiyot hodimlari va yaradorlarni zararlantishiga olib kelishi mumkin.

Zararlantish o`chog`idagi harbiy hizmatchilar va zararlantgan kishilarga qisqa vaqt ichida sanitar ishlovini o`tkazish kerak bo`ladi. Ular shahsiy himoya vositalaridan tezlik bilan foydalanishini bilishlari kerak. Paydo bo`lgan zararlantish o`chog`iga qo`tqaruvchi komandalar yuborilishidan oldin ularga zah'arlanishning oldini oladigan vositalar (tabletkalar) berilishi lozim va himoya vositalaridan foydalanishlari shart bo`lib h'isoblanadi. Zararlantgan kishilarga tibbiy evakuatsiya bosqichlarida takror qisman sanitariya ishlovini o`tkazish va u kerakli vositalar bilan ta'minlangan bo`lishi kerak. Bundan tashqari, texnika va tibbiyot vositalariga ham sanitariya ishlovi o`tkaziladi. Tibbiyot hodimlari zararlantgan kishilarga tibbiy yordam ko`rsatishni tugatmagunicha va ularga sanitariya ishlovini o`tkazmagunicha himoya vositalarida bo`lishlari kerak.

Bakteriologik qurol bu odamlarni qishloq ho`jalik mahsulotlarini va hayvonlarni zararlantish uchun qo`llaniladigan patog`en mikroorganizmlar, ularni toksinlari va mo`ljalga etkazuvchi vosita.

Bakteriologik qurolning o`ziga hos hususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Juda kam miqdorda ko`p odamni zararlantishi;
2. Har bir yuqumli kasallik uchun yashirin davrning borligi;
3. Yuqumli kasallikning kasal odamdan sog` odamga yuqishi
4. Ta'sirining davomliligi, ko`pgina spora hosil qiluvchi mikroorganizmlar o`zoq vaqt tashqi muhitda saqlanadilar. Ko`pgina mikroorganizmlar o`tkazuvchilarda h'am o`zining

hayot faoliyatini davom qiladilar, mn: chuma ko`zg`atuvchisi burga organizmida bir yilga yaqin yashaydi.

5. Topishning qiyinligi. Radiaktiv va zah`arli vositalarni tashqi muhitda sifat va miqdor jihatidan aniqlash asboblari bo`lsa bakteriologik qurolni va uni turini aniqlash uchun asbobning yo`qligi.

6. Tanlab ta`sir qilishi. masalan: o`simliklarni zararlash uchun (fitoforozi), hayvonlarni zararlash uchun alohida (krupnaya roqatog`o skota) faqat odam uchun (h`olera, chinchechak). Dushman ko`proq odamlarni h`olok qiladigan yoki tarkibdan chiqaradigan ko`zg`atuvchilarni qo`llaydi.

7. Kimyoviy va yadro qurollarini ishlab chiqishga qaraganda bakteriologik qurolni ishlab chiqishni nisbatan arzonligi.

Bundan tashqari bu qurolning o`ziga hos xususiyatlaridan yana: biologik qurolning himma hilligi; bir vaqtning o`zida bir qancha kasallik ko`zg`atuvchisini qo`llash mumkinligi; mahsus bo`lmagan o`tkazuvchilarni qo`llash.

Epidemiologik havfi bo`yicha bakteriologik va virusologik agentlar 3 ta guruhga bo`linadi:

1. YUqori qantog`iozli;
2. Kam kontagiozli;
3. Kontagiozsiz.

Epidemiya ko`zg`ash maqsadida yuqori kontagiozli kasallik ko`zg`atuvchilarini harbiy holatda dushman tomonidan qo`llanilishi ishonchli hisoblanadi.

Kasallikni tarqalishi uchun uchta omil bo`lishi kerak:

1. Infektsiya o`chog`i;
2. YUqish mexanizmi;
3. YUqtiradigan aholi.

Bunday qonuniyatlarni bilish epidemiya bilan qo`rashish usullarini anglashga yordam beradi. Bo`lar orasida muhimlari: ko`zg`atuvchilar va ularni olib yuruvchilarni o`ldirish maqsadida dezinfektsiya, dezinfektsiya va deratizatsiya o`tkazish; oziq-ovqatlar va suvni biologik vositalardan saqlash uchun tadbirlar; umumiy va shahsiy gigiena qoidalariga rioya qilish; yuqtirishni oldini olish uchun shahsiy himoya vositalarini qo`llash; dushman tomonidan qo`llanilgan ko`zg`atuvchini turiga qarshi aholini qarshiligini oshirish maqsadida spetsifik va nospetsifik profilaktika tadbirlarini olib borish.

SHuni ham esda to`tish kerakki dushman epidemiyaga qarshi tadbirlarni murakkablashtirish maqsadida har hil usullarni qo`llashi mumkin. Bu qurolni qo`llash usuli quyidagilardan iborat:

1. Bakterial aerozollar holatida;
2. Zararlangan o`tkazuvchilarni qo`llash bilan.
3. Diversiya usulida.

Eng havflisi bakterial qurollarni aerozol holatida qo`llash hisoblanadi. Cho`kadigan mikroorganizmlar oziq-ovqatlarni, suvni, tuproqni, texnika, inshootlarni zararlab 2 chi zararlantirish o`chog`ini paydo qiladi.

SHuni ham esda to'tish kerakki hamma zararlangan territoriya bir hilda epidemiologik ahamiyat kasb qilmaydi. Asosan odamlar ko'p yashaydigan va ishlaydigan shaharlar, aholi punktlari, halq ho'jaligi ob'ektlari epidemiologik ahamiyat kasb qiladi.

Odamlar kam yashaydigan territoriyada epidemik jarayon rivojlanmaydi va u erda epidemiyaga qarshi tadbirlarni olib borish shart emas. SHuning uchun bu territoriya va o'zi zararsizlanishi uchun qoldiriladi. Epidemiyaga qarshi chora tadbirlar odamlar ko'p yashaydigan joylarda olib boriladi. YUqtirishni aerazol usulida kasallik shu territoriyada tezda rivojlanadi ko'p sonli odamlarda va og'ir kechadi.

Tashuvchilarni qo'llaganda territoriya chegarasi aniq bo'lmaydi va kasallik asta sekinlik bilan rivojlanadi.

#### **Mashg'ulotning ta'minlanishi:**

- mavzu bo'yicha shemalar
- mavzu bo'yicha jadvallar

#### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

- kimyoviy qurollar turlari va tasnifini ayting
- kimyoviy zararlantirish o'chog'i turlari va h'arakteristikasini ayting
- kimyoviy moddalarning har hil turlari bilan odamlar zararlantirishining turlarini ayting
- biologik qurol vositalari
- biologik qurollarinnig o'ziga hos hususiyatlarini ayting
- biologik zararlantirish o'chog'i h'arakteristikasini ayting
- kombinirlangan zararlantirish o'chog'i va uning h'arakteristikasini ayting

**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4**

### **Amaliy mashg'ulot №5**

**Mavzu: Radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari**

#### **Mavzuning maqsadi:**

- talabalarga radiatsion va kimyoviy razvedka olib borish ishlarini o'rgatish
- talabalarga radiatsion va kimyoviy razvedka olib borish uchun qo'llaniladigan asboblarni tanishtirish

#### **Mavzuning vazifasi:**

- talabalarda radiatsion va kimyoviy razvedka tashkil qilish mahoratini shakllantirish
- talabalarda razvedka olib borish, asboblarni ishlatish amallari va ko'nikmalarini mo'qamallashtirish

**Kutilayotgan natijalar:** talabalar amaliy mashg'ulot o'tilgandan keyin bilishlari kerak:

- radiatsion va kimyoviy razvedka qaerlarda olib borilishini
- radiatsion va kimyoviy razvedqani kimlar olib borishini
- radiatsion razvedqaniing vazifalarini
- radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari
- kimyoviy ko'zatuvi postining asosiy vazifalarini
- zararlangan joylarni belgilash uchun olib yuriladigan KZO-1 va KZO-2 belgilarini qismlarini va quyish tartibini
- dozimetrlarni turlari va tuzilishini
- individual dozimetrlarni turlarini
- kimyoviy razvedqani vazifalari va usullarini

**Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

- radiatsion ko'zatuvi posti (KKP) va kimyoviy ko'zatuvi dozimetrlarining (KKD) asosiy vazifalari
- zararlangan joylarni belgilash tartibi
- dozimetriya usullari va dozimetrik asbob turlari
- radiatsion dozasi quvvatini o'lchovchi asboblari
- shahsiy dozimetrlar turlari
- zah'arlovchi moddalarini aniqlash usullari
- kimyoviy razvedka o'tkazish uchun qo'llaniladigan asboblari

**Amaliy mashg'ulot rejasini:**

- talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish – 10 daqiqa
- talabalarni bilim darajasini tekshirish - 60 daqiqa
- o'qituvchini darsni muhokama qilish – 20 daqiqa

**Mashg'ulotni o'tkazish joyi:** kafedra auditoriyasi

**O'qituvchining mavzuni asoslashi:**

Radiatsion razvedka va boshqa razvedkalar qo'shinlar harakat qilib borayotgan chiziqlar, h'arakat qilayotgan yo'nalishlarda va harbiy qism joylashgan joylarda olib boriladi va harbiy ko'mondonlikni, shtablarni, radiaktiv moddalardan zararlanganligini aniq ma'lumotlar bilan ta'minlab turadi.

Razvedka kimyoviy ko'zatuvi posti KKP va kimyoviy razvedka dozori tomonidan olib boriladi. ko'zatuvi postlar va razvedka dozorlari kimyoviy va bakteriologik razvedka dozorlari kimyoviy va bakteriologik razvedkalarinih'am birgalikda olib boradilar.

Radiatsiya razvedqaninig vazifalari quyidagilardan iborat:

- radiaktiv moddalarni joylarga tushishini o'z vaqtida aniqlash



- joylardagi radiatsiya darajasini aniqlash va boshliq bo'yrug'i asosida «Radiatsiya havfli» degan komanadani berish

- zararlangan joylarni aniqlab, shu erlarga mahsus «zararlangan» belgilarini qo'yish

- havfli zararlangan joylarni aylanib o'tish yo'nalishlarini ko'rsatish

- suv, havo, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalarning zararlanish darajasini aniqlash, ularni ishlatishga yaroqsizligini aniqlash

Joylardagi va havodagi radiaktiv moddalar mahsus radiatsiya razvedkasi asboblari (DP-5V, DP-64, IMD-21 va boshqalar) bilan va o'ziga hos aniqlash usullariga qarab aniqlaniladi.

Ko'mondonlik postlariga, pozitsiyalar, harbiy qism bo'linmalari, aerodromlar, suvdan o'tadigan joylar, asosiy o'tiladigan yo'nalishlar va boshqa joylarga kimyoviy ko'zatuv posti qo'yilgan bo'ladi.

Kimyoviy ko'zatuv postining asosiy vazifasi radiatsion, kimyoviy va bakteriologik zararlanishlarni o'z vaqtida aniqlash va zararlanish to'g'risida habar berishdan iborat. Bundan tashqari ular postlarda ko'z bilan yoki oddiy asboblardan yadro portlash ro'y bergan joyni, uning turini, taxminan yadro zaryadining portlash quvvatini aniqlashi mumkin. Ular radiaktiv moddalar bo'lo'tinining qaysi tarafga harakat qilayotganligini, postda radiatsiya darajasi paydo bo'lganini, taxminan o'z harbiy qismlarining qaysi bir bo'linmalari yadro zaryadi portlashi ta'siri ostida qolganligini aniqlashdani iborat. Ular olgan barcha ma'lumotlaridan boshlig'ini habardor qilib turadilar va mahsus qayd daftariga yozib boradilar.

Kimyoviy razvedka dozori (KRD) razvedka ishlarini mahsus kimyoviy razvedka mashinalarida olib boradi. Har bir razvedka dozori bo'linmasi: yadro portlash ro'y bergan o'choqda yoki kimyoviy va bakteriologik zararlanishi ro'y bergan o'choqlarda bir yo'nalishda, qo'shinlar harakat qilayotgan yo'nalishda yoki joylashgan erlarida evakuatsiya qilinadigan yoki tashib keltirish yo'nalishlarining bittasida harbiy qismlar joylashtirilgan va qo'shinlarga mahsus sanitariya ishlari o'tkazish kerak bo'lgan rayonlarda razvedka ishlarini o'tkazadilar.

Agar zararlangan joyda radiatsiya darajasi 0,5 R/Sni tashkil qilsa, bo'linma boshlig'i ko'rsatmasi bo'yicha mashinani to'htatadi va shu erga ogohlantiruvchi belgi qo'yiladi.

YAAlpi qirg'in qurollari bilan zararlangan joylarni belgilash uchun mahsus tabelda olib yuriladigan KZO-1 va tashib yuriladigan KZO-2 belgilari bor. Olib yuriluvchi KZO-1 belgisi komplekti quyidagilardan iborat:

- brezentdan tiqilgan sumkaga solingan 10 ta fanar yoki tuno'qadan tayyorlangan shchit

- 5 ta fonar (batareyalari bilan – 1 KSU-3)

- 20 ta uchburchak shaklidagi kog'oz, 2 ta qalam

-10 ta ustundan iborat.

Ushbu belgilar sariq rangga bo'yalgan bo'lib, shchitning yuz tarafiga № «zararlangan» degan so'z qora h'arflar bilan yozib ustunga mahkamlab qo'yiladi. Bu belgilar zararlangan joylarga qo'l bilan yoki moslama bilan o'rnatiladi. Bunday belgilar kundo'z kunlari 70-200 metrdan, kechasi esa 100 metr o'zoqlikdan ko'rinib turishi kerak. Kechasi shchit ko'rinib turishi uchun unga fanar o'rnatiladi.

Tibbiy xizmat radiatsiya, kimyoviy va bakteriologik razvedqani davolash muassasalari (brigada, tibbiy rotasi), alohida tibbiy batalon, harbiy dala, gospitalraida olib boradilar.

KKP vazifasi taqsimlash postida ishlovchi saninstro'qtor-dozimetrist zimmasiga yuqilatiladi. Saralash postida ishlovchi saninstro'qtor-dozimetrist radiatsiya razvedkasini o'tkazish uchun DP-5V, kimyo razvedkasini o'tkazish uchun PHR-MV asboblari bilan ta'minlangan bo'ladi.

Radiatsiya dozasi quvvatini o'lchaydigan asbob DP-3B harakatdagi ob'ektlar yordamida radiatsion razvedka o'tkazilayotgan vaqtda joylardagi gamma nurlanishning ekspozitsiyaion dozasi quvvatini o'lchash uchun mo'ljallangan. Radiatsiya quvvatini o'lchaydigan IMD-21B markali asbob gamma nurlanish ekspozitsion dozasi quvvatining busaga dozalar ko'rsatishidan oshib ketganida yorug'lik signalini berib habar berishga mo'ljallangan.

Radiatsiya dozasi quvvatini o'lchash uchun yana IMD-1 S asbobi qo'llaniladi. U gamma nurlanish ekspozitsion dozasi va joylardagi beta nurlanish aniqlash uchun mo'ljallangan.

Dozimetrik usullari. Dozimetrik asbob turlari.

Dozimetrik deb yadro zaryadi nurlanishlarini aniqlash va o'lchashga aytiladi.

Dozimetrik asboblarda deb ionlovchi nurlanishlar va dozalar bilan bog'langan kattaliklarni o'lchovchi asbobga aytiladi.

Konstruktiv jihatdan barcha dozimetrlar yadroviy nurlanishni qabul qiluvchi moslama (detektor) va o'lchagich qurilmalardan iborat. Hozirgi vaqtda nurlanishlarni aniqlash va o'lchash uchun nasosan 5 usuldan foydalaniladi: ionizatsion, kimyoviy, fotografik, stintilyatsion va lyuministsit. Dala sharoitida asosan 2 usul: ionizatsion va kimyoviy usullardan foydalaniladi. Umumharbiy qo'shinlarga o'zgarib tibbiy xizmat qismlarida ham nurlanish dozasi nazorat qilish ID-1, ID-11, DKP-50 A va DP-70 dozimetrlari yordamida olib boriladi.

Kimyoviy razvedqani tashkil qilish va uning vazifalari

Kimyoviy razvedka kimyo xizmati tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Kimyoviy razvedqaning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- qo'shinlar joylashgan joylardagi zaharlovchi moddalarni aniqlash va kimyoviy trevoga signalini berish

- zararlangan joylar chegarasini aniqlash, shu joylarga «zararlangan» degan belgi qo'yish (belgilarda qo'llanilgan moddaning turi, aniqlangan vaqti va kuni, zararlangan joyni aylanib o'tish yo'nalishi ko'rsatilishi kerak)

- zaharlovchi moddalar bo'lo'ti harakati yo'nalishini ko'zatiib borish

- zaharlovchi moddaning turgunligiga qarab kimyoviy zararlanish o'chog'ida nazorat ishlarini olib borish

- to'liq sanitariya yoki degazatsiya ishlarini o'tkazish uchun zaharlovchi moddalarni turli ob'ektlarda aniqlash

- zaharlovchi moddalar qo'llanilgan joylardan tahlil qilish uchun namunalar olish

Harbiy qism kimyoviy xizmatlari razvedka o'tkazish uchun quyidagi asboblarda:

- PPHR yarim avtomatik kimyoviy razvedka asbobi

- VPHR umumh'arbiy kimyoviy razvedka asbobi
- GSP-1 m, avtomatik gazosignalizator
- PHL – kimyoviy dala laboratoriyasi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak

Harbiy qism tibbiy xizmati kimyoviy razvedqani quyidagi asboblarni yordamida olib boradi:

- tibbiyot va veterinariya sohasida ishlatiladigan kimyoviy razvedka asbobi PHR-MV,
- tibbiy kimyoviy razvedka asbobi MPRH
- avtomatik GSP-1 m yoki GSP-2 gaz signalizatori

Qo'shin tibbiy xizmati va fuqarolar muhofazasi xizmati hodimlari zararlangan joylarda kimyoviy sanitariya razvedkasini olib boradi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tibbiy punktlar, batalonlar va gospitallar joylashgan erda zah'arlovchi moddalarni aniqlaydi va dushman tomonidan kimyoviy hujum o'tkazilganligi to'g'risida signal beradi
- tibbiy punktlar batalonlar va dala gospitallarini boshqa joyga ko'chirish kerak bo'lib qolganda ko'chiriladigan joylarni aniqlash va tekshirib kiradi
- suv va oziq-ovqatlarni zah'arlovchi moddalardan zararlanganligini aniqlab, ularni iste'mol qilish to'g'risida ekspertiza hulosasini beradi
- yaralardagi kuso'q massalaridagi va formal kiyimlardagi zah'arlovchi moddalarni aniqlaydi

Zah'arlovchi moddalarni aniqlash usullari

Hozirgi vaqtda zah'arlovchi moddalarni aniqlashda organoleptik, biologik, kimyoviy, biokimyoviy va fizik usullardan foydalaniladi.

Zah'arlovchi moddalarni organoleptik usul bilan aniqlashda odamning sezgi a'zolaridan foydalaniladi. Bu usul ko'proq kimyoviy bomba yoki snaryadlar portlaganini ko'rgandagina qo'llaniladi. Bunda hosil bo'lgan chuqurda suyuq h'oldagi zah'arlovchi moddani ko'rish mumkin, ba'zan rangli bo'lot paydo bo'ladi. Atrofdagi o'simliklarning bargi sarg'ayishi yoki qo'ng'ir tusga kirishi mumkin.

Samolyotlar orasida qora to'tun qolsa bunda birorta zah'arlovchi modda qo'llanilganligi to'g'risida gumon qilish mumkin.

Biologik usulda hayvonlarda tekshirish olib borish yo'li bilan zah'arlovchi moddalar aniqlaniladi.

Zah'arlovchi moddalarni kimyoviy usul bilan aniqlashda, zah'arlovchi moddalarning mahsus reaktivlar bilan hosil qilgan birikmalari o'rganiladi. Buning natijasida rangli birikmalar hosil bo'lishi yoki hiralashishi mumkin. Yana biokimyoviy va fizikaviy usullar keng qo'llaniladi.

**Mashg'ulotning ta'minlanishi:**

- mavzu bo'yicha jadvallar
- mavzu bo'yicha shemalar
- razvedka asboblari, dozimetrlar

**Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

- radiatsion va kimyoviy razvedka deganda nimani tushunasiz

- radiatsion va kimyoviy razvedqani vazifalarini ayting
- zararlangan joylarda razvedka ishlarini kimlar tashkil qiladi va olib boradi
- zararlangan joylarga qanday belgilar qo`yiladi
- radiatsion razvedka asboblari tushuntirib bering
- kimyoviy razvedka asboblari tushuntirib bering
- radiatsion zararlanishni aniqlash usullarini tushuntiring
- kimyoviy zararlanishni aniqlash usullarini ayting
- dozimetrlar deganda nimani tushunasiz

Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar: 1, 2, 3, 4

### Amaliy mashg`ulot №6

Mavzu: Radiatsion holatni razvedka usulida bah`olash

Mavzuning maqsadi:

- talabalarga joylarni radiaktiv moddalar bilan zararlanishni shahsiy tarkibning jang qilish qobiliyatiga ta`sir qilishini tushuntirish
- talabalarga radiatsion h`olatni razvedka usulida baholashni o`rgatish

Mavzuning vazifasi:

- talabalarga radiatsion sharoitni razvedka ma`lumotlari asosida baholash mahoratlarini o`rgatish
- talabalarga radiatsion sharoitni oldindan aytib berish ma`lumotlari asosida baholashni o`rgatish

Kutilayotgan natijalar: talabalar amaliy mashg`ulot o`tilgandan keyin bilishlari kerak:

- radiaktiv moddalardan zararlangan joylar tasnifini
- radiatsion razvedka ma`lumotlari asosida radiatsion sharoitni baholashni
- tashqi nurlanish ta`sirida natijasida shahsiy tarkibda bo`ladigan sanitar yo`qotishlar miqdorini aniqlashni
- zararlangan joydan o`tayotgan shahsiy tarkibga radiatsiya dozasi ta`sirini aniqlashni
- radiatsion sharoitni oldindan aytib berish ma`lumotlari asosida baholashni

Mavzuda ko`rib chiqiladigan savollar:

- radiaktiv bo`lo`t izi qanday hosil bo`ladi
- hosil bo`lgan bo`lo`tdagi radiaktiv moddalarni erga to`qilishi nimalarga bog`liq bo`ladi
- radiatsion sharoitni baholash nimalarni o`z ichiga oladi
- radiaktiv moddalardan zararlangan territoriya qanday zonalarga bo`linadi
- shahsiy tarkib havfli zararlanish zonasida bir so`tka qolganda qancha nurlanish oladi
- radiatsion sharoit razvedka ma`lumotlari asosida qanday baholanadi
- radiatsion sharoit oldindan aytib berish ma`lumotlari asosida qanday baholanadi

### Amaliy mashg`ulot rejasi:

- talabalarni mashg`ulotga tayyorgarligini tekshirish – 10 daqiqa
- talabalarni bilim doirasini tekshirish – 60 daqiqa
- o`qituvchini mavzuini muhokama qilish va yakun yasashi – 20 daqiqa

### Mashg`ulot o`tkazish joyi: kafedra auditoriyasi

#### O`qituvchini mavzuni asoslashi

YAdro quroli portlashi natijasida erdagi tuproq, changlarni, somonga olib chiquvchi havo oqimi, qo`ziqorin shaklidagi bo`lo`t hosil bo`ladi. Bu bo`lo`t portlash markazidan yuzlab kilometr masofalarga tarqalib ko`p joylar, suv manbalari, ekinlar va shu erdagi turli ob`ektlarni zararlaydi.

YAdro zaryadi tufayli paydo bo`lgan bo`lo`tda radiaktiv moddalarni erga tarqalib tushishiga ko`p omillar: shamolning yo`nalishi va uning tezligi, portlatilgan zaryadning quvvati va qanday balandlikda portlatilganligi, joylarning rel`efi, joylardagi daraxtlar va o`simliklar ta`sir ko`rsatadi.

Zararlanish zonasi qartaga ellips shaklida tushiriladi. Radiatsiyaning yuqori darajalari portlash markaziga yaqin joyda va ellips o`qi atrofida bo`ladi. Portlash markazidan va ellips o`qidan o`zoqlashgan sari radiatsiya darajasi kamayib boradi.

Radiatsion sharoitni baholashdan asosiy maqsad radiaktiv moddalar bilan zararlangan joylarni, shahsiy tarkibning harbiy qismlar va uning bo`linmalarining jang qilish qobiliyatiga nechog`li ta`sir qilishini aniqlashdan iborat. Bu quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- zararlangan joylarda jangavor harakatda bo`lgan shahsiy tarkib olgan radiatsiya dozasi miqdori aniqlanadi
- radiaktiv nurlanish natijasida shahsiy tarkib tomonidan yuz berishi mumkin bo`lgan yo`qotishlar miqdori tahminan aniqlanadi
- zararlangan joylarda harbiy qismlarning h`arakatlari maqsadga muvofiq ravishda belgilanadi
- turli ob`ektlarni radiaktiv moddalardan zararlanish darajasi aniqlanadi

Radiaktiv moddalardan zararlangan joylar 4 zonaga bo`linadi: o`rta, kuchli, havfli, o`ta havfli

A zona – o`rtacha zararlangan zona. Bu zonada harbiy qo`shinlarning harakat qilishga ruhsat etilmaydi. Shahsiy tarkib bu erda qancha bo`lishidan qat`iy nazar safdan chiqaruvchi nurlanish dozasini olmaydi. Agar ular ikkinchi marta A zonaga tushib qolsalar nurlanish kasalligiga uchraydilar.

A zonaning tashqi chegarasidagi zararlanish o`chog`ida o`zok vaqt bo`linganda kishilar 40 r nurlanish dozasini oladilar. A zonaning ichqari chegarasiga yaqinlashgan sari yuqori darajada nurlanish havfi paydo bo`ladi. A zonaning ichqari chegarasidagi radiatsiya darajasi tashqi chegarasidagi 10 barobar yuqori bo`ladi. Demak, umumiy nurlanish dozasi 10 barobarga ko`paygan bo`ladi ya`ni, 400 r ni tashkil qiladi. SHunday qilib, A zonadagi

nurlanish dozasining to'liq miqdori 40 r dan, 499 r gacha tashkil qiladi. Bu esa bir so'tkalik nurlanish dozasini (20-200 r) tashkil qiladi.

